

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MILLIY LIBOS VA SA'NAT FAKUL'TETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI

**«KASB HUNARGA YO'NALTIRISH »
FANIDAN**

O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – Mehnat ta'limi

TERMIZ - 2021

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti Kengashining 2021 yil "28" avgustdagi _1_-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: TerDU p.f.f.d (PhD)., katta o'qituvchi B.E.Qodirov,
TerDU t.f.f.d (PhD)., katta o'qituvchi
A.T.Butayarov,
NamMQI p.f.f.d (PhD)., dotsent J.A.Mannonov,

Taqrizchilar: Texnologik ta'lim kafedrasi kafedrasi mudiri,p.f.d,
dots. M.X.Shomirzaev
Texnologik ta'lim kafedrasi kafedrasi dots.p.f.n.
X.Ch.Dusyarov

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o'quv-metodk Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2021 yil 28 08)dagi 1-sonli bayonnoma



MUNDARIJA

№	Bo'limlar	Betlar
1	O'MMning kelishilgan varag'i	2
2	O'MM ning mundarijasi	3
3	Ma'ruza mashg'ulotlar mazmuni	4-65
4	Seminar mashg'ulotlari mavzulari	66-80
5	Tajriba mashg'ulotlari mavzulari	81-102
6	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	103
7	Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar	104-106
8	Ilovalar	107
8.1	Fan dasturi	108-114
8.2	Ishchi fan dasturi	115-127
8.3	Glossariy	128-136
8.4	Testlar	137-142
8.5	Nazorat savollari	143-145
9	Foydalanilgan adabiyotlar	146

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“KASB HUNARGA YO'NALTIRISH”
fanidan

O'QUV USLUBIY MAJMUA

TERMIZ-2021

1-Modul. O'quvchilarni kasb -hunarga yo'naltirishning nazariya asoslari.

1 -MAVZU. Kasbga - hunarga yo'naltirish fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari
2. Fanning maqsadi va vazifalari, fanning mazmuni
3. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».
4. Kasb hunarga yo'naltirish asoslari to'g'risidagi ta'limot, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot.
5. Kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati, umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: Kasb. Hunar. Ixtisoslik. Qonun. Qiziqish. Shakllantirish

Yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari. Fanning maqsadi va vazifalari, fanning mazmuni

Maktab yoshlarni o'z qobiliyatlariga yarasha ongli ravishda aniq maqsadga yo'naltirilgan kasb tanlashga tayyorlashga da'vat etilgandir. Ishchi ixtisosini ongli ravishda tanlash yosh ishchi shaxsining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'rta maktab o'quvchilarining ishchi ixtisosini tanlashlari, o'z mahoratlarini takomillashtirishlari, Kasb-xunar kollejlari, institutlar, universitetlar va akademiyalarning kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlarida malakalarini oshirishlari ishlab chiqarishning chinakam, mohir ustalari bo'lib yetishishlari, ijtimoiy hayotda bozor iktisodiyoti mehnat harakatida faol qatnashishlari allaqachon qonuniy tusga kirib qoldi.

Biroq o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishi har bir kishining individual sifatлари, qiziqishlark, uning qobiliyat va mayllarini, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligi barcha sohalarining perspektiv rivojlanishini hisobga olgandagina samarali bo'lishi mumkin.

Oliy va o'rta maxsus (kichik mutaxassisi, bakalavr, magistr) ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun har yili oliy o'quv yurtlari va kasb-xunar kollejlari, o'rta maktabni bitiruvchilarning taxminan 1/3 qismi qabul qilinganda hozirgi paytda mamlakatimiz ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun yetarli bo'ladi. Shunday qilib, kechagi to'kizinchii sinf o'quvchilarining 60 foizi qanday bo'lmasin, moddiy ishlab chiqarish doirasida ishlashlari va ishchilar sinfi hamda qishloq xo'jalik mehnatkashlari sinfini to'ldirishlari kerak. Shu boisdan maktabda kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlarni tashkil qilishdan maqsad o'z qobiliyatini namoyish qilishning yagona yo'li oliy ma'lumotga ega bo'lish orqali emasligi to'g'risidagi fikrni ilgari surishdir. O'quvchilarda jismoniy mehnat kishilariga nisbatan hurmatni boshdan, muntazam ravishda, maktabdagi barcha ta'lim davomida tarbiyalab borish kerak. O'z o'quvchisi qobiliyatini o'qituvchidan boshqa hech kim yaxshiroq bilmaydi. Uqituvchi o'quvchilardagi ishlab chiqarishga ongli ravishda olib keladigan fazi-latlarni rivojlantirishga doir ishlarni. juda ehtiyotkorlik bilan olib borishi lozim. Shu bilan birga, kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlarning muvaffaqiyati ishning barcha forma va metodlarining jamuljam bo'lishiga: sinfdagi fanlarga oid darslar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, «Kasb tanlash haqida»gi leksiya va hokazolarga bog'liq. Maktab bu ishlarni amalga oshirishda o'quvchyning ota-onasi, maktab kashshoflar va "Yoshlar ittifoqi" tashkilotlari, otaliq korxonalarining jamoat tashkilotlari, shuningdek, birlashgan kasaba kengash organlarining qo'llab-quvvatlashiga tayanmog'i kerak.

Bu borada kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar tayyorlashning asosiy kanallaridan biri deb hisoblash mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 600-taga yaqin o'quv yurti bo'lib, ulardan 450-tasi kasb-xunar kollejlari. Bugungi kunda kasb-xunar kollejlari 250 mingga yaqin o'quvchi bilim olmoqda.

Shuning uchun ham, to'kkizinchi sinfni tamomlagan o'quvchilarga katta umumta'lim tayyorligiga asoslangan xilma-xil ishchi kasbi va ixtisoslarini tanlash va ularni egallashlarida juda keng imkoniyatlar yaratilgan.

Kasb tanlashga yo'llash bo'yicha barcha ishlarni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Kasb ma'lumoti (kasbga oid axborotlar).
2. Kasb tarbiyasi.
3. Kasbga oid konsultatsiya.
4. Kasb tanlash (kasbga yaroqliligi).
5. Kasbiy adaptatsiyasi.

Shuni aytib o'tish lozimki, mazkur bosqichlar, garchi alohida-alohida ko'rib o'tilayotgan bo'lsada, amalda ular bir butunlikda, kompleks qo'llaniladi. O'qituvchi bir vaqtning o'zida, ularning bir nechtasidan foydalanishi mumkin. Masalan, kasbga oid axborot bilan parallel holda u yoki bu kasb haqida, agar o'quvchi kasb bilan tanishish paytida biror nimaga tushunmay qolgan bo'lsa, konsultatsiya berilishi ham mumkin. Ammo bu har ikkalasi tanlangan mehnat turi bo'yicha kasbga boshlangach havasni paydo qilish uchun asos sanalib, kelgusida kasb tanlashga yo'llash ishlari davomida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

Zikr etilganlar respublikamiz jahon hamjamiyatiga kirib borayotganligini yorqin ifodalaydi

Mustaqil O'zbekistonning “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni ilk bor 1992 yil 2 iyuldan amalga joriy etilgan bo'lib, u VII bo'lim 44 moddadan iborat edi.

Amaldagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun esa 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan bo'lib, 34 ta moddadan iborat. Bu qonunga binoan respublikamizda shu paytgacha hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni ham O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida 1997 yil 29-avgust kuni qabul qilindi. Bu qonun quyidagi bo'lim va fasllardan tashkil topgan.

Umumiy qoidalar. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari:

- rivojlanishning erishilgan darajasi;
- kamchiliklar va muammolar;
- isloh qilish omillari.

Milliy dasturning maqsadi vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari:

- 2.1. Dasturning maqsad va vazifalari;
- 2.2. Dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.

3.1. Shaxs;

3.2. Davlat va jamiyat

3.3. Uzlüksiz ta'lim;

3.3.1. Uzlüksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari;

3.3.2. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari;

3.3.3. Uzlüksiz ta'lim tizimi va turlari: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim;

3.4. Kadrlar tayyorlash tizimida fan;

3.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish;

IV. Kadrlar tayorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash;

4.2. Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

4.3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish;

4.4. Ma'naviy axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar;

- 4.5. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
 - 4.6. Ta'lim tizimini boshqarish;
 - 4.7. Kasb ta'limi tizimi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
 - 4.8. Ta'lim tizimini moliyalash;
 - 4.9. Moddiy-texnika ta'minoti;
 - 4.10. Ta'lim tizimini yaxlit axborot makoni monitoringini vujudga keltirish;
 - 4.11. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish;
 - 4.12. Ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
 - 4.13. Fan va ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish;
 - 4.14. Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
 - 4.15. Ta'lim bilan kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik;
- V. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir chora-tadbirlar.

Yuqorida keltirilgan qisqa jumlar mazmuni umuman respublikamiz ta'lim tizimi, shuningdek, kasb-hunar ta'limining ham metodologik asosi ekanligiga ishoradir. Kasb-hunar ta'limining metodologik asoslarisiz uning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tashkil etish shakllari, metod va vositalari, ishtirokchilari natijalari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi boshqa omillarni asosli o'rganish mumkin emas. Shu o'rinda qabul qilingan qonunlar umuman o'zgaras emas, balki hayot deb atalmish murakkab jarayonga moslashadigan bo'lish zarurligini unutmazlik zarur. Amaldagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga o'n uch yildan beri birorta o'zgartirish kiritilmaganligi bir tomondan uni mukammalligini bildirsa, ikkinchi tomondan o'ylantiradigan hol. Kasb ta'limining metodologik asoslari uning meyoriy hujjatlarini aniqlashga imkon beradi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni ham O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida 1997 yil 29-avgust kuni qabul qilindi.

Kadrlartayyorlashmilliydasturimaqsadi. Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan salbiy mafko'raviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uchta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-ahloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

- o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlashga budjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lim xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

- ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

- shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

- davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

- uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

- fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

- ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiqbo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Kasb hunarga yo'naltirish asoslari to'g'risidagi ta'limot, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot.

Kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati, umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Hozirgi kunda yoshlarni kasb va kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan barkamol avlodni kasblar bo'yicha ongli ravishda tanlashga tayyorlash.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo'llash yoshlarning kasbni erkin mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu

shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

Kasb uzi nima? Degan savol tug'iladi.

Kasb bu – insonga ma'lum „bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir.

Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.

Kasb – tiriklik va tirikchilik manbai.

Kasb – tirik organizimdir.

Kasb tanlashga yo'llash (proforentatsiya) – termini: yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash hayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi – o'quvchi yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.


Kasb so'zining ma'nosi – Insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'taydigan mashg'ulotni bildiradi.

Kasb yo'naltirish ishlarini mohiyati: Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitidir.

Kasbga yo'naltirish - O'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga ketishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va hatti – harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.

Ushbu vositalar kasb va kasbga yo'naltirish mazmunining asosini tashkil etadi. Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart – sharoitlari deganda, kasb va kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlari majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amalda masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma – xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borda ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Qo'yida yoshlarning kasbga yo'naltirishning nazariy o'zlashtirishning modelini tasvirlaymiz. (1 shakl)da



Касб ва касбга юналтириш ишлари қуйидаги асосий yo'nalishларини o'z ichiga oladi:

Касбий ахборот yoshларни – zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, ho'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan extiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy usish va o'z o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Касбий maslahat .Yoshларning pedagogik psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlash pedagogik – psixologik psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o‘zining psixologik – fiziologik xususiyatlari ko‘proq mos bo‘lgan turli kasbiy yo‘nalishlar to‘g‘risida tavsiyalar berish:

Kasbiy saralash Insonning ma‘lum kasbga tegishli meyoriy talabalariga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash.

Mehnat va kasb-hunar ta‘limida o‘quvchilarni kasb va kasbga yo‘naltirishning quyidagi usullarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. O‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirish.
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o‘qishni tavsiya etish:
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar o‘tish:
4. Ishlab chiqarish korxonlari, firma, fan maorif, madaniyat san‘at muassasalariga sayohatlar tashkil etish.
5. Mehnat ilg‘orlari bilan, ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o‘tkazish:
6. Mehnat ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha – multmedialar ko‘rsatish:
7. O‘quvchilarni turli xil to‘garaklarga jalb etish:
8. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib berish.

Kasb va kasbga yo‘naltirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni quyidagilar:

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi – I – bosqich

Boshlang‘ich kichik yoshdagi (1-4 sinflar) – II-bosqich

O‘rta yoshdagi (5-7 sinflar) – IV- bosqich

Katta yoshdagi (8-9 sinflar) – IV – bosqich

O‘quvchilar kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezoni (besh ballik) ko‘rsatkich o‘lchovlari.

Birinchi bosqich – Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarda (katta gurux) mehnat bilan band bo‘ladigan insonlarga, ularning mashg‘ulotlariga, shuningdek qo‘llaridan keladigan faoliyat turlari bo‘yicha dastlabki mehnat ko‘nikmalarini ijobiy, xissiy tasirchan shakllantirish:

Ikkinchi bosqich – Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilishga oid va o‘yi ko‘rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbqiq qilish orqali mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo‘nalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish.

Uchinchi bosqich – O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mazmuni ulardagi qiziqish qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishdagi hamda ma‘naviy moddiy qadriyatning izlanuvchan – sinchkov ko‘rinishlarini shakllantirish:

To‘rtinchi bosqich – O‘quvchilarda kasbiy o‘zlikni anglashni shakllantirish davri ya‘ni o‘quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma‘noga egalligini tushunib yetishi jamit oldidagi burchi javobgarlik hislatlarini shakllantirish. Shu sababdan ham mutaxassislarning har biri to‘la aniq kasbga yo‘naltirish sohasidagi o‘z faoliyatida o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan metodlarga, muammoga yondoshuv usullariga hamda idrok qilish uslubi vash u kabilarga tayanadi hamda kasbga yo‘naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo‘naltirish sohasidagi bundan buyon muvoffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

2-Mavzu: Kasb-hunarga yo'naltirish, uning tarixiy taraqqiyoti

Reja:

1. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish: kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy tushuncha va kategoriyalari.
2. Xorijiy davlatlarda kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va uning tarixi.
3. Mamlakatimizda kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va uning tarixi.

Tayanch so'zlar: Kasbga yo'naltirish. Tarixiy taraqqiyoti. Xorij davlatlarida kasbga yo'llash. Mamlakatimizda kasb-hunarga yo'naltirish

Меҳнат ва касбий тайёргарлик тизими бевосита ёшларнинг меҳнат ва касб тарбиясини касбий ахборотлар, касб танлаш, касбга ўқитиш ишларини амалга оширадиган улкан ишлардан бири бўлиб, ўз ўтмиш таракқиётига эгадир. Халқимизнинг миллат, элат бўлиб шаклланишини меҳнатсиз, касбларсиз, ҳунарсиз тасаввур этиб бўлмайди. Одамзод пайдо бўлишидан бошлаб меҳнат билан шуғулланган. Турмуш буюмлари ясаган юмушлар бажарган. Дастлаб фақат кун кечириш учун қилинган меҳнат кейинчалик бкатторок мақсадни, моддий манфаат кўриш учун амалга оширилиб хатто, Хасрларда йирик харбий қўшинларни, миллионлаб халқларни буюмлар, анжомлар билан таъминлай оладиган ишлаб чиқариш соҳалари даражасига чадар тараққий этди.

XII - XV асрларда Мовароуннахр ва Хуросонда ҳунар илми, кўлами ривожланиши энг юқори поғонага кўтарилди. Хар бир халқота-бобосидан мерос бўлиб, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ўзининг тарихий-маданий бирлиги билан ажралиб, ўзига хос хусусиятларни сақлаб келган. Ўзбеклар ҳам шулар жумласидандир. Республикамиз худудида ўтказилган археологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ҳунарсозлик бу ерларда икки минг йиллар олдин ривожланган. Бу даврда синфий жамият пайдо бўлиб, йирик меҳнат тақсими негизда ҳунарсозлик мустақил соҳа бўлиб ажралиб чиққан. IX - XII асрларда ҳунарсозлик кенг ривожланиб, халқимизнинг хорижий давлатлар билан иқтисодий-маданий алоқалари авж олган. Айрим манбаларда қайд этилишича, 32 хил ҳунар тури мавжуд бўлган аҳоли яшайдиган жойни шаҳар деб аташган. 1897 йили биринчи аҳоли рўйхати вақтида катта шаҳарларда аҳолининг кўпчилиги касби ҳунарсозлар ҳисобланган. Масалан, Наманган аҳолисининг 64 фоизи, Қўқоннинг 52 фоизи, Чустнинг 54 фоизи, Марғилоннинг 50 фоизи, мустақил касб-ҳунарсозлари ҳисобланган. Ҳунарсозликнинг қадимий даврларда энг кўп тарқалган тури темирчилик, заргарлик, мисгарлик ва тунука созлик бўлган. Ҳозиргача кенг тарқалган қадимий касблардан бири ёғоч буюмлариясаш ҳунарсозчилигидир. XX аср бошларида тикув машиналарини пайдо бўлиши билан янги ҳунарсозлик касби – машиначилик юзага келади. Ўзбекларнинг энг кенг тарқалган уй касбларидан бири дўппидўзликдир. Булардан ташқари, ҳунарсозлар теридан хар хил буюмлариясашлар, пойафзалчилар ўз маҳсулотларини шаҳар ва қишлоқларда юриб аҳолига сотганлар. Нонвойлик, қандолатчилик ва қасбобчилик ҳам касблардан бўлиб уларнинг дўконлари хар қадамда учраган. Катта тўй-маракалар ўтказиш одати махсус ошпазлик касбини юзага келтирган.

Шарқнинг буюк мутафаккирлари, алломалари деярли барча даврларда ўз асарларида, шеър ва ғазалларида, адабий меросларида ҳалол меҳнатни, касб-ҳунар эгаллашни муқаддаслигини вазарурлигини таъкидлаб, улуғлаб ўтганлар. Улуғ бобоколони миз А. Навоий ўз ғазалларида ёшларни илм-ҳунар эгаллашга чақиради.

Илм касбини қилди то жони бор.

Ҳунарсозганди онга ки имкони бор.

Х асрда яшаб ижод этган улуғ бобокалонимиз Абунаср Ал -Форобий ҳам кишиларни ҳалолмеҳнатқилишга ва касб-хунарэгаллашга чақиради. Форобийнинг фикрича, инсон - "Ожиз банда", "Хеч нарсага қодир бўлмаган мавжудот" эмас, балки у энг олийкамолот бўлиб "Акл-идрок зиёсига эга, ўзи учун зарур бўлган ҳамманарсани яратишга қодир борлиқдир". Форобий меҳнат ва касб -хунаркўникмаларини ахлокий фазилатларни ҳосил қилишлозимлигини таъкидлаб: "Агар касб-хунар фазилати туғмабўлганда, подшоҳлар ҳамўзлари истаб ва ҳаракат қилиб эмас, балки подшоҳлик уларга фақат табиий равишда муяссар бўлган, табиатталаб қилган табиий бир мажбурият бўлибқолар эди. Касб-хунарфазилати туғмабўлмас экан, халқлар ва шаҳар ахлларида, одоб-ахлоқ, расм-русм, касб-хунар, одат ва иродани ҳосилқилиши учинсондаги зўр куч ва қудрат талаб қилинади. Бу икки йўл билан: яъни таълим ва тарбия йўли билан ҳосил қилинади. Таълим дегансўзхалқлар шаҳарлар ўртасида назарий фазилат ва амалий касб-хунар фазилатлари бирлаштириш деган сўздир" деган эди. Касб-хунар эгаллашни аҳамияти тўғрисида комусий олим АбуАли Ибн Сино (980-1037)нинг асарларида ҳам кўрамыз. Унинг фикрича болага ёшлигидан бирор касб-хунарни ўргатиш лозим. Бола касб-хунарни маълум даражада ўзлаштириб бўлгандан сўнг ўз касб-хунаридан ҳаётда фойдаланиш, яъни ҳалолмеҳнат билан мустақил ҳаёт кечиришга ўргатиш керак.

"Ёшларга илм бера бориб, уларга хунароўргатмок муҳим маъсулиятли ишдир. Хунароўрганиш бирла ёшлар ҳар қандай ноҳўяхатти-ҳаракатлардан холи бўладилар", деб таъкидлади. Хунаролибўлишга чорланган насихатлари ҳозирги кунда ҳам муҳим қимматга эга:

Олтин олмагину ўргангин хунар Хунарни олдида ҳасдир олтин зар

Шарқ, Марказий Осиёлик мутафаккирлар ҳамда ўзбек марифатпарвар шоирлари ҳам касб-хунар эгаллашни аҳамияти тўғрисида ўз асарларида қимматли маслаҳатларини қолдирганлар, бумерос ҳозирги кунда ҳам ёшларни касб-хунарга йўналтиришда муҳим аҳамиятга эга. Инсоният тарихий тараққиётида Шарқу - Ғарбда ҳам ёшларни касб-хунар эгаллашларига алоҳида эътибор билан қаралган. Уларни касб-хунар эгаллашларига оталик, устозлик маслаҳатларини, йўл-йуриқларини мунтазам бериб келганлар. Расман касбга оид маслаҳатидорлари асримиз бошларида пайдо бўла бошлаган.

Тарихий маълумотларга асосланиб айтишимиз мумкинки, касбга йўналтириш ишлари қадимдан шаклланиб келган. Касбга йўналтириш ишлари ҳам инсоният жамият тараққиётининг эҳтиёжларидан келиб чиққан ва у ҳам жамият каби ўз ривожланиш тарихига эга. Табиийки, касбга йўналтириш касблар пайдо бўлишидан вадемак унга эҳтиёж юзага келишидан илгари пайдо бўлиши мумкин эмас эди.

Инсоннинг билим, кўникма ва қобилиятларини ташхис қилиш билан боғлиқ касбга яроқлилик даражасини баҳолаш элементларининг пайдо бўлиш тарихи узок асрларга бориб тақалади. Эрамизгача бўлган III минг йилликдаёқ қадимги Вавилондамирзалар тайёрловчи мактабда битирувчилар синовдан ўтказибборилган. Ўша даврлар билим даражасидан келиб чиқилганда касбий тайёргарлик кўрган мирза Месопатамия цивилизациясида марказий ўринда шахс турган: у майдонларни ўлчашни мумкин бўлиши, мусиқа асбобларида ижро услубини ваашула айтишни билган. Синов даврида унинг газламаларни, металлларни, ўсимликларни турларини билиши, шунингдек барча ўрт арифметик амалларни бажара олиш кўникмалари текширибкўрилган. Қадимий Мисрда касбни эгаллашга даъвогарлар суҳбатдан ўтказилиб, унинг таржимаи холи, билим савияси, ташқи кўриниши ҳамда суҳбатни олиб бориш қобилиятлари аниқланган. Сўнгра меҳнатқилиш, ёшатиш сукут сақлаш қобилиятлари олов, сув ваўлим билан кўрқитиш воситасида синаб кўрилган.

Айтилишича, синаб кўриш ва танловдан ўтказишнинг бундай жиддий тизимини ўтмишнинг буюк алломаси Пифагор ўзбошидан ўтказган. Ўқишдаи сўнг Грецияга қайтгач, у ўзи босиб утган синовлар тизими асосида талабалар танлаб олинувчи мактаб очган. Пифагор интеллектуал қобилиятларга асосий эътиборни қаратган вабадий қилиб

айтганда "Хар қандай ёғочдан ҳам меркурийни йуниб бўлмайди"- деб ҳисобланган. Шунингдек, у ёш инсонларнинг ўзини тушунишга ҳам алоҳида эътиборни қаратган ва уни инсон характерида намоён бўлувчи асосий кўрсаткичлар деб санаган. Пифагор ўқитувчилар ва ота-оналар тавсияларига эътибор билан қараган, ҳар бир янги талабани синчиклаб кузатиб борган. Шундан сўнг уни ўз фикрини эркин ифодалашга ва суҳбатдошлар билан баҳслашишга ўргатган. Эрамизгача бўлган минг йилликда Хитойда ҳукумат амалдори касби ва мансаби кенг тарқалган. Мос равишда ушбу касбни танлашдаги дастлабки элементлар ҳам шу ернинг ўзида юзага келган. Бундай касбни эгаллашга жазм этган ёшлар тантанаворлик руҳи билан суғорилган муҳитда давлат имтиҳонлари топширган. Имтиҳон саволларини кўпчилик ҳолатларда император ўзи белгиллаган, ҳам ўзи синовдан ўтказган ва даъвогарларни саралаш кўп босқичли усулда амалга оширилган.

Спарта, Афина, Римнинг қадимий тарихида бошқа мисолларни кўриш мумкин. Спартада жангчиларни, Римда гладиаторларни тайёрлашнинг мукамал тизими яратилган ва муваффақиятли амалга оширилган. "Одамлар - деб ёзган эди Афлотун – бир бирларига у даражада ўхшаш бўлиб туғилмайдилар уларнинг табиати ва қобилиятлари турлича бўлади. Шу сабабли барча вазифаларни амалга оширишда ўз табиий қобилиятларига мос равишдаги юмушлар танлаганда уни яхшироқ, тез ва кўпроқ даражада амалга ошириш мумкин бўлади. Афлотуннинг "Давлатчилик" асарида қандай амалдорни танлаш керак деган саволига Сукрот қуйидагича жавоб беради: "Энг ишончли, жасур ва имкониятлари кенгрок бўлган шахсларга кўпроқ эътиборни қаратиш: бундан ташқари нафақат олий табақадаги юқори маънавиятли инсонларни, балки шу даражадаги тарбия беришга лойик одамларни ҳам топиш лозим. Улар билимларни тез қабул қила олишлар ҳамда тез фикрлай олишлари, мустаҳкам хотирали, ўз фикрида қаттиқ турувчи ва барча муносабатларда меҳнаткаш инсонларни топиш лозим".

Эрамизгача бўлган 900 ва 600 йиллар оралигидаги хинд асарларида заргарлар, темирчилик, арқонсозлар, тўқувчилар, бўёқчилар, дурадгорлар, кулоллар, уй хизматчиларининг турли тоифалари, акробатлар, фолбинлар, найчилар, раққослар касб сифатида санаб утилган. Яна шунингдек актёрлар, судхурлар ва савдогарлар ҳам мавжуд бўлган. Бундай маълумотлар кўп бўлиб, уларнинг барчаси бугунги кунда касбий ташхис қилиш ёки касб танлаш деб аталувчи тушунчаларнинг қадимдан шаклланганлигини билдиради.

Шахс ҳислатларини илмий тадқиқ қилишнинг асосчиси Ф.Гальтон ҳисобланади. Бу турдаги тадқиқотлар мақсадини амалга ошириш учун у Лондонда ўтказилган тиббиёт жпхозлари васогликни сақлаш услублари 1884 йпл халқаро кургазмасидан Профессиональная ориентация учашихся (А.Д Сазанов ва б.) М . 1УХХ 12 оеі Профессиональная ориентация учашихся (А.Д Сазанов ва б.) М . 1УХХ 14 оеі фойдаланади. Кўргазмага келувчилар ўз жисмоний қобилиятлари ҳамда физиологик имкониятларини 17 та кўрсаткич бўйича синаб кўришлари мумкин бўлган. Булар ичида инсон бўйи, танаси оғирлиги, панжа ва зарб кучи, хотираси, рангларни ажрата олиши, кўриш ўткирлиги ва бошқалар бўлган. Тўлик дастур бўйича 9237 киши кўриқдан ўтказилган. 1908 йилнинг январида Бостон шаҳрида, ўсмирларга ўз ҳаётий меҳнат йўлини танлашига ёрдам берувчи ёшларни касбга йўналтириш ўз ишини бошлаган. Бу бюро фаолиятини касбга йўналтириш ишларининг асоси сифатида қабул қилинган. Кейинчалик шу турдаги бюро Нью-Йоркда ҳам ташкил этилди. Унинг вазифалари қаторига инсонларнинг турли касбларни эгаллаш ида қуйиладиган талаблар, мактаб укувчилари қобилиятларини чуқурроқ ўрганиш қабилар кирган. Бюро ишини ўқитувчилар билан хдмкорликда тест ваанкеталарда фойдаланилган ҳолда олиб борилган. Шу даврда Англияда махсус вазирлик руҳсати билан 17 ёшдан кичик бўлган укувчиларнинг касб танлашига маслаҳат ёки кўпроқ амалий характердаги маълумотлар билан ёрдам кўрсатувчи муассасалар очиш йўлга қуйилган. Бу ерда 1911 йилда меҳнат биржалари

ҳамда таълим муассасалари ҳамкорликдаги ишинимувофиклаштирувчи махсус ахборотнома чоп қилиш йўлга қуйилган.

1922 йилда Германияда касбга йўналтириш ва маслахаттутғрисидаги кончи қабул қилинди ва шу асосида ушбу тизимни амалга ошириш мезонларини ифодаловчи «Низом» тасдиқланди. Россияда касбга йўналтириш ишлари XX асрнинг дастлабки йилларида амалга ошира бошланди. Москвадаги ўқитувчилар уйининг Педагогика музейида турли типдаги мактаблар ўқитувчиларининг касб танлашига оид қатор изланиши олиб борилади. Бунда асосий эътибор қайси касбларнинг кўпроқ талабга эга эканлиги, уларни танлашда уқувчиларнинг қандай сабабларга асосланганини тадқиқ қил ишга қаратилди.

1927 йилда Ленинградда ташкил этилган касбий маслахат бюросида амалий тадқиқотлар билан биргаликда илмий тадқиқотлар ҳам олиб бориладиган.

Касбга йўналтириш ишларининг психологик-педагогик асосларини ишлаб чиқишга П.П.Блонский, А.С.Макаренко каби атоқли рус олимлари муҳим хисса қўшдилар. Улар уқувчиларни касбга йўналтириш ишларининг психологик-педагогик асосларини яратишнинг кейинги тараққиёти учун шароит яратиб бердилар. Касбга йўналтириш ишлари политехник таълим, меҳнат таълими ватарбияси билан ўзвий алоқадорликда олиб борилди. 30-йилларнинг бошларида касбий маслахат ва касбга йўналтириш Марказий лабораторияси фаол ташкилий ишларни олиб борди, 1932 йилга келиб бу турдаги бюрлар сони 54 тага етказилди. Бирок бу даврдаги касбга йўналтириш ишлари тараққиётига уқувчилар меҳнат таълимига бўлган эътиборни сусайиб бориши салбий таъсир кўрсатди. Меҳнат таълимининг бекор қилиниши касбга йўналтириш ишларининг тухтаб қолишига олиб келди.

50-йилларнинг бошларида касбга йўналтиришга бўлган эътибор яна кучая бошлади ва маълум даражадаги ташкилий-услубий ёндошув юзага келди. Шундан кейинги даврларда уқувчиларнинг кнзикишлари ва халқ хужалиги эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқилган касбга йўналтириш ишлари беш йиллик режалар асосида ташкиллаштириб борилди.

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритган йилдан бошлаб таълим тизимида туб ўзгаришлар рўй бермоқда. "Таълим тўғрисида"ги Қонуни, "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" нинг қабул қилиниши натижасида халқ хужалигининг малакали мутахассис кадрлар билан таъминлаш тизими яратилмоқда.

Юкорида қисқача хронологик тарзда келтирилган маълумотларнинг ўзи ҳам ёшларнинг касбга йўналтиришнинг аҳамияти нечоғли баландлигини кўрсатиб турибди. __

3-MAVZU: Kasb – hunarga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari.

Reja:

1. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari.
2. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari.
3. Kasb hunarga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari.

Tayanch so'zlar: Ijtimoiy asoslar. Psixologik asoslar. Fiziologik asoslar

Hozirgi kunda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda bir qancha muammolarni bartaraf etishimizga to'g'ri keladi. Bizning vazifamiz kelajagimiz bo'lgan o'quvchilarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo'lgan, bozor sharoitini biladigan har tomonlama tushunadigan, ma'lumotli yigit - qizlarni tayyorlash.

Bu ishlar asosan uch bosqichda olib boriladi:

1. Yoshlarga dastlabki kasb-hunar ko'nikma va malakalarini oilada, maktabda, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari beriladi;
2. Maxsus mutaxassislik bo'yicha oliygohda o'qib, tajriba oshiradi;
3. Olingan bilim ish joyida amaliy mashg'ulotda malaka oshirish jarayonida mustahkamlanadi.

Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi.

Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib boriladi, ko'pincha rasmiy tusda bo'ldi. Natijada maktabni tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'ladi. Yoshlarning ko'pchiligi u yoki bu kasbni nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilmas edi. Hunar-texnika bilim yurtlarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 5% i kasbini maktabning tavsiyasiga binoan, 30% o'rtoqlarining maslahatiga ko'ra, 15%i ro'znoma, radio, televideniye orqali berilgan e'lonlarga, qo'shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq 15%i ota-onalarning maslahati, 12%i hunar-texnika bilim yurtlari xodimlarning tavsiyalari bo'yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintakalarda obyektiv holda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o'quvchilarning aksariyat ko'pchiligi kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz? - degan savolga 41,1 % o'quvchi «Bu xaqida o'ylab ko'rganim yo'q», - deb javob bergan.

O'quvchilarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborliligi va berilishini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan xolatlar quyidagicha:

1. O'quvchilarda demontaj – montaj ishlarini bajarish, o'lchash, tahlil qilish, izlash, minimal qo'yimlarni taqozo etadigan aniq bo'g'imlarni tayyorlash orqali e'tiborlilik shakllanishini ta'minlaydigan ishlar;
2. O'quvchilarda nazorat topshiriqlari, planshetlar, hisoblash mazmunini o'rganish orqali, detallar, uzellar va mexanizmlarning sxemalari, chizmalari, jadvallari va konstruksiyalarini o'rganish orqali belgilashni ta'minlaydigan ishlar.

O'quvchilarda o'rganilayotgan kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;

- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun:

1. YOshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;
2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.
3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish.
4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.
5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
7. Umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

Bu borada kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalash muammolari haligacha to'la bartaraf etilmagan. Maktablarda o'qiyotgan yigit va qizlarga davlat alohida g'amho'rlik ko'rsatadi. SHu sababli korxona ularga zarur kasb tayyorgarligi va tarbiya berishni ta'minlashga da'vat etilgan. Tarbiyaviy ishlar – umumiy ta'lim maktabida olib borilgan ishlarning davomidir. Yoshlarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish sharoitida yoshlar tarbiyasiga yangi muhit – mehnat va ishlab chiqarish jamoasi katta ta'sir ko'rsatadi. YOshlar ishchi jamoaning an'analari bilan tanishadi, uning manfaatlarini o'z manfaati deb tushunadi va o'z mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglay boshlaydi.

Hunar ta'limi yagona tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolang'ich ishlab chiqarish jamoalari doirasida o'quv-tarbiya jarayonlari ko'pincha bir kishi – o'rta bo'g'in ishlab chiqarish jamoaning muhandis – pedagog tomonidan amalga oshiriladi. Ayni shu muhandis – pedagog ishlab chiqarish jamoaga doimiy va uzluksiz pedagogik ta'sir ko'rsatadi. SHningdek, bu jamoaning ayrim a'zolari korxonadagi kasb-hunar ta'limi tizimining turli zvenolaridagi tegishli o'quv gruppalariga jalb qilinadilar.

Pedagog olimlarga ishchilarning umumiy va mahsus tayyorgarligi, ularning ishlab chiqarish malakasi darajasi, umumiy va mehnat madaniyati, jamoa kasbiy faoliyat jarayonida o'quvchilar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar, jamoa foydalanadigan ma'naviy va moddiy rag'batlar kiradi.

Shaxsiy-psixologik omillarga esa e'tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma'lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o'rganishda shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-texnologik faoliyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib toptirishdir. Kasbiy yo'naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi yuksak g'oyaviy, printsiptial, siyosiy etuk va ma'naviy barqaror inson bo'lishi shart.

O'zining ishchi – o'quvchilarini bilish va hurmatlash, doimo ularning har tomonlama kamol topishi uchun qayg'urish, ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, har biriga yakka holda yondoshish kasbga yo'naltirish, pedagogik mahorat, o'z ustida uzluksiz ijodiy ishlash, o'z bilimlarini takomillashtirib borish, yuksak saviyaga erishishi muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlashda yoshlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda ham shahar, tumanlarda yoshlarni kasb tanlashga yo'llovchi Tashxis Markazlari ishlab turibdi. Kasblar bo'yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo'lib ular bir biridan farq qiladi.

A) Ma'lumot-axborot beruvchi maslahatlar:

Kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U sizni o'qa kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo'yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qaerda, qanday qilib o'rganish yo'llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi: shu maslahatning o'zida siz kasb mahoratini oshirish yo'llari to'g'risida ham ko'pgina ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Odatda bunday maslahatlarni o'sha kasbda uzoq vaqtdan beri ishlayotgan tajribali mutaxassislar o'tkazadilar.

B) Diagnostik kasb maslahati berish:

Kishini har tomonlama o'rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo'lgan ayrim sifatlarni aniqlab o'rganishga qaratilgandir.

Bunday maslahatdan maqsad – faoliyatning qanday sohasida siz muvaffaqiyatli ishlashingiz mumkinligini, ya'ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o'z mehnatingizdan mumkin qadar ko'proq qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o'tkazadilar. Ular shaxsni o'rganishning anketa to'ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo'llaydilar.

V) Meditsina kasb maslahati:

Odamning salomatligi u tanlagan kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar siz mo'ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan sog'lig'ingizga to'g'ri kelmaydi, deb topilgudek bo'lsa, u holda vrach sizga boshqa bir kasbni, ya'ni sizning qiziqishingiz va sog'lig'ingizga zarar etmaydigan kasbni tanlashga tavsiya qiladi.

G) Tuzatish kirituvchi kasb maslahati:

Odam bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o'sha kasb muvofiq kelmagan hollarda bunday maslahat zarur bo'ladi. Bunday vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko'rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo'lib qoladi. YUqorida sanab o'tilgan kasblar bir-biri bilan o'zaro mahkam bog'liqdir. Meditsina kasb maslahatiga ma'lumot – axborot berish xarakteridagi va tuzatish kirituvchi xarakterdagi elementlar mavjud bo'lsa, diagnostik kasb maslahatida kasb maslahatlarining elementlari uchraydi va hakoza.

Kasb to'g'risida maslahat 3 ta bosqichga bo'linadi.

A) *Kasbga tayyorlash.* Bunga o'quvchining maktabni bitirgunga qadar bo'lgan jarayoni kiradi. Bunda maktabda o'quvchining qiziqishi, xohishi u yoki bu kasbga moyilligini hisobga olgan holda kasblarga tayyorlanadi, kasblar to'g'risida axborotlar berib boriladi.

B) *Yakunlovchi:* 8-9 sinfni bitirayotganda kasbga yo'llash ishlarini olib boriladi. Bu yakunlovchi turda o'quvchilarni qobiliyatiga qarab u yoki bu kasblarni egallashga yordam berish. Bu xil maslahat maktab doirasidan tashqariga chiqadi va ko'pincha akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, tashkilotlarda o'quvchi 8-9 sinfni bitirib chiqib borgan joylarda amalga oshiriladi.

Kasbga ko'nikma hosil qilish. Bu kasbga yo'llash ishi yakunlovchi ish bo'lishi kerak, chunki o'quvchi zavod va fabrikada, shuningdek o'quv yurtlarida o'z qiziqqan sohasi bo'yicha ishlaydi va o'qiydi. Ko'nikma hosil qilish sistemali ravishda rejani bajarish va musobaqalarda ishtirok etish natijasida mustahkamlanadi, ishlab chiqarishda qancha og'ir bo'lsa, shuncha ko'p yosh ishchiga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Kasbga layoqatliligi. Kasbga layoqatliligini aniqlash 3 yo'l bilan amalga oshiriladi.

A) sog'lig'i to'g'risida;

B) Kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi;

V) Psixo-fiziologik holati.

Bu layoqatligiga qarab mutaxassislar o'quvchilarga u yoki bu kasbga loyiq ekanligini aniqlashadi va kasbni o'zgartirish kerakligi yoki sog'liqqa zararligini, uning organizmi tanlagan kasbga loyiq emasligi to'g'risida ma'lumot berishadi. SHuning uchun o'rta maktablar kasb tanlash ishlarini olib borishda asosiy baza bo'lib hisoblanadi.

MagistrLAR ushbu mavzu yuzasidan olib boriladigan ilmiy izlanish hamda ilmiy-pedagogik ishlarida – kasbga yo'naltirish masalalarida test metodlaridan unumli va maqsadli foydalanishga yo'naltiriladi.

Unda, ilmiy pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishning mantiqiy ketma-ketligiga: tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g'oyalarini o'rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqotlarida magistrlik dissertatsiya mazmunini shakllantirishdan iboratdir.

Bu borada o'qituvchining samarali faoliyati uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, dars berish metodikasini egallaganligi, o'z mehnatining psixologik asoslarini hisobga olishi bilan bog'langanligi ravshan bo'lishiga olib keladi.

MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI:

1. O'quvchilarda o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda nimalarga alohida e'tibor berish lozim?

A) Analiz va sintez, diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish va isbotlash.

B) Diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.

V) Analiz va sintez, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.

*G) Analiz va sintez, diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.

2. Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun qanday masalalarni hal qilish zarur?

*A) Yoshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

B) Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

V) Yoshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining

oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

G) Yoshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslahat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

Unda, ilmiy pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishning mantiqiy ketma- ketligi qanday?

A) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g'oyalarini o'rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

B) tadqiqot farazi va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

V) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g'oyalarini o'rganish va ishlab chiqish mantiqi, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

G) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g'oyalarini o'rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, ilmiy pedagogik tadqiqot

2-Modul. Kasblar, o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirish.

4-Mavzu. Kasblar xarakteristikasi - professiogramma.

Reja:

1. Professiografiya psixografiya.
2. Professiogramma va ularning turlari, mazmuni.
3. Psixogramma.

Tayanch so'zlar:

Professiografiya. Psixografiya. Professiogramma va ularning turlari, mazmuni. Psixogramma.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga kasb tanlashning ilmiy asoslariga doir bilimlarini tugri kullashda xamda uz individual (shaxsiy) xususiyatlarini mehnat faoliyati turlaridan birini uzlashtirishi imkoniyatlari bilan takkoslashda yordam beradi.

Bizga ma'lumki, kasblar xakida materiallarni yigish, kasbga taalukli faoliyat mazmunini umumlashtirish maqsadida bir-biriga kiyosiy tahlil berish profesioografiya deyiladi.

Professiografiya odamlarning kasbiy faoliyatini urganadigan professiografiyaning muxim soxalaridan biridir. Kasblarning yoki mutaxassisliklarning, bular odamga, uning psixofiziologik va jismoniy xislatlariga nisbatan kuyayotgan asosiy talablarning tasnifi, shuningdek mazkur kasbiy faoliyat shaxsga muvoffikiyatli yoki muvoffakiyatsizlik, konikish yoki konikmaslik keltiruvchi omillar professiografiya vazifalariga kiradi.

Professiografiyaning ancha mufassal va sistemalashtirilgan xolda takdim etilishi, mehnatdan psixolgik jixatdan foydalanish uchun muljallangan ishning konkret turini kompleks tarzda, muntazam va kup tomonlama tasniflash professiogramma deb ataladi.

Professiogrammalar kasb maorifi jarayonida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish uchun kullaniladi.

Kasb maorifi deganda, o'quvchilarni mehnat faoliyati soxalari, xalk xujaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish tushuniladi.

Kasb xususiyatlarini va ularning tavsifnomalarini o'rganish uchun, har bir kasb uchun professiogramma tuziladi. Malaka tavsifnomalari professiogrammaga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

Professiogramma mazmuniga taxminan quyidagilar kirishi kerak:

1. Mazkur kasbdagi mutaxassis talab etilayotgan bozor iqtisodiyoti sohasi tavsifnomasi, sohaning xodimlarga bo'lgan ehtiyoji, avtomatlashtirish va kompleks mexanizatsiyalash munosabati bilan shu kasbdagi ishlarning rivojlanish istiqbollari.

2. Ixtisoslik tavsifnomasida tavsiya qilingan kasbning mazmuni, mehnat ob'ektlari, vositalari.

3. Ishchiga qo'yiladigan talablar (mas'uliyat darajasi, tashabbus va mehnatning ijodiy elementlari, ishning gigienik sharoitlari, tibbiy va psixofiziologik ko'rsatkichlar yoki to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi belgilar, ayollar mehnatini qo'llash mumkinligini va boshqalar).

4. Boshlang'ich ixtisoslik razryadi doirasida o'quvchining muvaffaqiyatli ishlashi uchun umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar (ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni hisobga olgan holda).

5. Mehnatni tashkil etishning iqtisodiy sharoitlari, mehnatga haq to'lash tizimi.

6. Mazkur kasb vakillari (ishlab chiqarish ilg'orlari, mehnat qahramonlari)ning biografik ma'lumotlari.

O'ta mas'uliyatli va ish sharoitlari havfli deb ta'riflanadigan ishlar uchun professiogramma qator talablar bilan to'ldiriladi. Ular uzoq vaqt mobaynida tez ishlash malakasini, qo'l barmoqlarining kuchini, oyoqlar kuchini, barmoqlarning harakatchanligini, ko'z, qo'l va oyoqlar muvofiqligini, har ikkala qo'lning ixtiyoriy harakatlarini talab etadi.

Professiogrammalar korxonalar yoki maxsus muassasalar(xonalar, laboratoriyalar) tomonidan tuziladi. Ularni ishlab chiqishda muhandislar, psixologlar, shifokorlar, o`qituvchilar ishtirok etishi kerak.

Suhbatlar o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar professiogramma bilan batafsil tanishtiriladi. O`quvchining alohida talablar qo`yiladigan kasblarni egallab olishiga uzil-kesil imkoniyat yaratish uchun ergonomik laboratoriyalarda tadqiqotlar ham o`tkaziladi. Kasb tanlashda maktabning ota-onalar bilan mustahkam aloqasi katta ahamiyatga ega. O`quvchilarda kasbga oid qiziqishlarning paydo bo`lishi va rivojlanishidagi muvaffaqiyat ko`p jihatdan maktab va ota-onalarning birgalikdagi samarali ishlariga bog`liqdir. Har xil kasblarlar sulolasi an'analarini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ommalashtirish va targ`ib qilish kerak.

Tegishli adabiyotlarni o`qish ham ko`pgina kasblar bilan tanishishda jiddiy yordam beradi. Bunday adabiyotlar maktab kutubxonasida bo`lishi kerak, albatta.

O`quvchining o`zligini tushunishi, o`z kuchi va imkoniyatlarini, shu jumladan o`z qobiliyatlarini to`g`ri baholay bilishi, keyin esa shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini kasb talablari bilan solishtirib ko`rishi kasbni muvaffaqiyatli tanlash shartlaridan biridir.

Vatanimizdagi va chet eldagi psixologik adabiyotda o`quvchi shaxsining turli tomonlarini mustaqil baholash, shu jumladan kasb tanlashda o`z yo`lini belgilash jarayonida qobiliyatlarni va kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashni tahlil qilishga urinish hollari uchrab turadi. O`quvchilarning qobiliyatlari va kasbga layoqatliligini mustaqil baholashning, shuningdek mikromuhitni baholashning o`ziga xos-xususiyatlarini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

1. O`quvchilarning bu fazilatlarini o`qituvchilar, ota-onalar, o`rtoqlari tomonidan tahlil qilinishi;

2. Mehnat faoliyatining u yoki bu sohasiga layoqatlilikni mustaqil baholash bilan o`quvchilarning kasbga oid niyatlarini ana shu mustaqil baholashning shakllanish sharoitlari o`rtasidagi nisbatini aniqlash;

3. O`quvchilarning mustaqil baholashi bilan tashqaridan bergan baholarni taqqoslash asosida o`qituvchilar, ota-onalar, o`rtoqlari baholarining o`xshashlik darajasini aniqlash.

Bunday qobiliyatlarni, mustaqil berilgan baho darajalarini (birinchi, ikkinchi, uchinchi) hisobga olgan holda mustaqil baholashning quyidagi o`lchamlari (etarlicha baholamaslik, ortiqcha baho berish, baholarning mosligi) bo`yicha qarab chiqish kerak.

Biron-bir faoliyat sohasiga layoqatligini o`zi baholashni biror kasbni egallash niyatlari bilan taqqoslash besh guruh o`quvchilarni ajratib ko`rsatishga imkon berdiki, ularda:

1) biron-bir faoliyat sohasiga layoqatliligini baholash ham, tarkib topgan biror kasbni egallash niyatlari ham yo`q (barcha tipdagi maktablar bo`yicha o`rtacha 4,7%);

2) biron-bir faoliyatga layoqatligini o`zi baholash yo`q, lekin muayyan darajada kasbni egallash niyatlari bor (18,1%);

3) layoqatligini baholash kasbni egallash niyati bilan mos keladi (66,2%); 4) layoqatligini baholash shakllangan, lekin kasbni egallash niyatlari yo`q (4,2%);

5) faoliyat sohalaridan biriga layoqatli deb baholansa, kasbni egallash niyati boshqa sohada bo`ladi (6,6%).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish va kasb bo`yicha yangi sohalarining vujudga kelishi, kasbga oid mehnat xususiyatining o`zgarishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi xodimlariga qo`yiladigan talablarning murakkablashuvi - bularning hammasi o`rta maktabni tamomlovchi o`quvchilar uchun qanday kasbni egallash muammosini hal etishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu munosabat bilan kasbga yo`naltirish ishlarini keng avj oldirish zarurati ancha ortadi.

Ana shu ishning muvaffaqiyatli rivojlanib borishi ilmiy-psixologik muammolarning muayyan bir majmuini ishlab chiqishni talab etadi. Bunday muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: kasblarni va ular tomonidan qo`yiladigan talablarni, kasb mahoratini egallash va kasbga ko`nikish jarayonida shu kasb uchun muhim sifatlarning tarkib topish shart-sharoiti va qonuniyatlarini o`rganish. Shaxsning psixologik xususiyatlarini hamda kasbiy layokatligini aniqlash va oldindan aytish metodlarini, shuningdek xilma-xil mehnat turlarining rivojlanish

istiqbollarini o'rganish va xalq xo'jaligi, fanning turli sohalarida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni xisobga olish zarur.

Kasblarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Negaki ularning natijalari ham kasbga yo'naltirish ishiga, ham turli kasblar haqida keng ma'lumot berish va kasblarni targ'ib qilishga asos qilib olinishi kerak.

Yuqori sinflarda kasb tanlash vazifalari munosabati bilan o'quvchilarni va ota-onalarni qiziqtirayotgan kasblar, yoshlarning kelib qo'shilishiga eng ko'p ehtiyoj sezayotgan sohalar, kasbga taalluqli tayyorgarlikka ega bo'lishning aniq imkoniyatlari bilan batafsil tanishtirish zarurligi haqidagi masala paydo bo'lmoqda.

Kasbga oid maslahatlar berish va kasbga layoqatlikni tanlash vazifalariga javob beruvchi kasblarning psixologik tavsifnomalarini tuzish ancha murakkab vazifadir. Bu esa xodimning oldiga kasb tomonidan ko'yiladigan psixologik talablarni aniqlashni taqozo etadi. Bunday dasturlarni tuzish xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab etadi va ayni vaqtda ancha murakkab ilmiy-psixologik tadqiqot hisoblanadi. Bunda tadqiqotning ob'ektiv metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu xil kuzatishlar, savol-javoblar faoliyatning tahlili va kasblarni o'rganishning boshqa usullari asosida olinadigan professiogrammalarni tajribada sinab ko'rishni ham o'z ichiga oladi. Bunda kasblarning qiyosiy-psixologik tavsifnomalari uchun miqdoriy mezonlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar asosan izlanish tusida bo'ladi. Shu bilan birga tadqiqot metodlari va kasblar tavsifnomasi ishlab chiqilgan va amalda foydalanilayotgan sohalarida ham tadqiqotlar va izlanishlar davom ettiriladi.

Kasblar psixologik tavsifnomalarining xilma-xilligi turlicha amaliy vazifalarga muvofiq kasblar psixologiyasi sohasidagi bilimlarimizdan foydalanishning har xil shakllaridan iboratdir. Bu bilimlarning to'laligi va ilmiy asoslanganligiga qarab xilma-xil vazifalarni hal etishda ularni amaliy jixatdan qo'llash imkoniyatlari ortib boradi. Shuning uchun kasblarning tavsifnomalarini tuzish bilan birga, shu bosqichning o'zidayoq ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradigan kasbga oid mehnat psixologiyasi sohasida asosli ilmiy tadqiqotlar olib borish katta ahamiyatga ega. Bu sohada psixologiyada ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan qator tadqiqotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Ularning ba'zi birlari, masalan, mehnat ta'limi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqalari ishlab chiqarishdan boshlanib, so'ngra laboratoriya sharoitiga o'tkaziladi. Birok bu tadqiqotlarning natijalaridan odatda psixografik maqsadlarda foydalanilmaydi. Vaholanki, kasbga oid mehnat psixologiyasining juda ham murakkabligi va uning ko'p tomonlama amaliy ahamiyati chuqur tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirishning har qanday shakllarida ular haqidagi ma'lumotlarning muayyan tizimini shunday tuzish kerakki, u kasblar tasnifini ishlab chiqishni talab etsin. Mumkin bo'lgan ko'pgina tasniflar orasida mazkur holda psixologik tasnif alohida qiziqish uyg'otadi. Ularning tuzilishini aniqlashga urinish ishlari hali tugallangan emas va keyingi tadqiqotlarni talab etadi.

Ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish ishlarining keng avj oldirilishi munosabati bilan vatanimizda va chet ellarda kasblarni o'rganish, ularning natijalaridan foydalanish tajribasida mavjud bo'lgan barcha qimmatli narsalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shuni unutmaslik kerakki, chet el psixografik materiallaridan foydalanish ularning ilmiy jihatdan etarlicha asoslashmaganligi hamda bizdagi va kapitalistik mamlakatlardagi kasbga oid mehnat sohasidagi farqlar sababli ancha cheklangandir. Bunga sozlovchi kasbi misol bo'la oladi. Garb davlatlarda nashr qilingan ma'lumotnomada sozlovchi mehnatining faqat bir turi tavsifi beriladi. Ish jarayonida malakali sozlovchi-ishchi sta-noklarni sozlashning hamma turlarini, eng oddiyalarini ham bajaradi. Stanoklarga esa kam malakali operatorlar xizmat ko'rsatadi. Mehnat taqsimotining bunday shakli bizda joriy qilinmagan. Operatorlar malakasining ortib borishi va ular sozlash ishlarining eng oddiy turlarini bilib olishga qarab, ular astasekin malakali sozlovchi bo'lib boradilar. Chunki sozlash ishlarining murakkab turlari (yangi olingan, kapital tamirdan chiqqan va boshqa stanoklarni sozlash) ular zimmasiga tushadi.

Ana shu cheklanishlarga qaramay, masalan, garb davlatlarda kasbga yo'naltirish maqsadlarida yaratilayotgan kasblar haqidagi ma'lumotnoma tarzidagi adabiyotlar sistemasi

diqqatga sazovordir. Bular yirik nashrlar bo'lib, xam kasb tanlash masalalari bo'yicha konsultatsiya beruvchi kishilar uchun, xam kasb tanlayotganlar uchun zarur bo'lgan yaxshi sistemalashtirilgan qisqa ma'lumotnoma materiallardan iboratdir. Qasblarga bo'lgan talab va kasblar xususiyatining o'zgartirishiga bo'lgan talab asosida ma'lumotnomalar qayta ishlanadi va ba'zi materiallar aniqlashtiriladi. Ikki tomli kasblar lug'ati eng to'liq qo'llanma hisoblanadi. Unda garb davlatlarda da mavjud bo'lgan taxminan 40000 kasb va ixtisosliklarga oid ma'lumotlar bor. Birinchi tomda ana shu hamma kasblar va ixtisosliklar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ular alfavit tartibida joylashtirilgan va olti raqamli harfli kod bilan ta'minlangan. Ana shu koddan foydalanib, kasblar haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

Bundan tashqari, 700 dan ortiq g'oyat keng tarqalgan kasblar haqidagi ma'lumotnoma bor.

Ancha kuchaytirilgan kasbga yo'llash ishlarini olib borish uchun metodik axborot va ma'lumotnoma adabiyotlarni tuzish muhim vazifalardan biridir.

Kasb-hunar kollejlari, o'quv texnik markazlari, umum talim maktablari, ota-onalar, o'quvchilar, shuningdek yoshlarni ishga joylash ishi bilan aloqador bo'lgan muassasalarning xodimlari ana shunday adabiyotga alohida ehtiyoj sezadilar.

Kasblarni o'rganishda ham jiddiy kamchiliklar bor. Bu esa respublikamizda kasbga yo'naltirish ishlarining yagona sistemasini yaratishni qiyinlashtiradi. Chunonchi, xozirgi vaqtga qadar menedjer, konsalting va boshqa kasblarning professiogrammalari tuzilgan emas. Bu yoshlar bilan olib boriladigan kasbga yo'naltirishishiningsamaradorligini ancha pasaytiradi.

Shuningdek, kasbiy guruhlarining asosiy vakillari va xalq xo'jaligi, fan va madaniyat sohasidagi asosiy mehnat turlari uchun qisqacha psixologik tavsifnomalar, ma'lumotnoma adabiyotlar uchun kasblar kompleks tavsifnomalarining tarkibiy qismi bo'ladi. Shu maqsad uchun mavjud materiallardan foydalanish bilan bir qatorda tavsifnomalari bo'lmagan kasblar va ixtisosliklarning keng o'rganilishini tashkil etish kerak. Bunday ish qisqa muddatga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda uni amalga oshirish rejasi tuzilishi zarur. Bunda birinchi navbatda diqqat-e'tiborni maktabni bitirish arafasida ishlash yoki ishchi kasblarini o'rganish istagini bildirgan o'quvchilar uchun ma'lumotnomalar tuzishga qaratish, keyin esa kasblarning asosli ma'lumotnoma-lug'atlarini tuzish kerak.

Ayni vaqtda xilma-xil tadqiqot metodlarini qo'llagan holda kasblarni ilmiy-psixologik jihatdan o'rganishga doir jamoa tarzidagi professiografiya ishlari keng avj oldirilishi kerak.

Bu o'rinda yoshlarning Kasbga oid muhim fazilatlarni egallab olish jarayonini va bunda o'quvchilarda vujudga kelayotgan xatoliklarni o'rganish muxim ahamiyatga ega. Masalan, ish sur'ati tomonidan yuksak talablar qo'yiladigan harakatlarni hamda farqlanishi qiyin bo'lgan belgilarni aniqlashda o'z-o'zini tekshirishdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni, shuningdek qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalanish asosida yashirin jarayonlarni sozlash bilan bog'liq harakatlarni talab etadigan kasblarni egallashda ta'lim jarayonida qiyinchiliklar va xatolar paydo bo'lishi aniqlangan.

Biron-bir amaliy faoliyatni egallash ayni vaqtda psixofiziologik takomillashish jarayonidir. Bunday takomillashish deganda kishining psixofiziologik holati faoliyatni (ishni) talab darajasida bajarish uchun yaroqli tip yoki namunaga yaqinlashib kelishi tushuniladi. Mashqlarni o'rganish yuzasidan olib borilgan ko'pgina ishlar shuni ko'rsatadiki, faoliyatning yaxshilanishi faqat odam psixofiziologik funktsiyalarining miqdor jihatdan o'sishi bilan emas, balki sensor-motor reaksiyalar tezligi va aniqligining ortishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Maxoratning quyi bosqichidan yuqori bosqichga o'tish kishining psixofiziologik funktsiyasining miqdoriy-sifat o'zgarishlariga tayanadi.

Faoliyatning ba'zi bir turlarida bunday o'zgarish o'z-o'zidan ravshan.

Masalan, velosiped haydashni endi o'rganayotgan kishiga muvozanatni saqlab turish asosiy qiyinchilikni tashkil etadi, yiqilib tushmaslik uchun u avvallari hosil qilingan ko'nikmalarni safarbar etadi, o'zining tabiiy belgilaridan foydalanadi. Lekin velosipedga nisbatan psixofiziologik moslashish vazifasi hal etilgandan keyin boshqacha psixofiziologik mexanizmlardan foydalanishni talab etuvchi yangi vazifalar - chidamlilikni, tezlik hissini, yo'l bo'ylab harakat qilish vaqtidagi taktik usullarni egallash vazifasi paydo bo'ladi.

Boshqa faoliyat turlarida psixofiziologik tuzilishni o'zgartirish unchalik sezilarli emas, ba'zan u mahorat tarkib topishining ancha kechki bosqichlarida ro'y beradi. Bu o'zgarish shaxsiy-psixologik tafovutlarning tabiiy asosiga hech bir ta'sir etmaydi. Biroq kasbga kirishib borish jarayonining turli bosqichlarida goh u, gox bu xususiyat tayanch vazifasini o'taydi. P. T. Magzumov tadqiqotlarini dalil keltiramiz. U tokarlik kasbini egallashning dastlabki bosqichini o'rgangan edi. P. Magzumov shuni aniqladiki, kasbni egallashning mazkur bosqichida nerv jarayonlari kuchli bo'lgan kishilar mehnat topshiriqlarini muvaffaqiyatli uddalaganlar. Keyingi bosqichda esa nerv jarayonlari ancha zaif kishilar bir oz ustunlikka ega bo'lishi aniqlandi.

Muallif shunday farazni ilgari suradi, asab jarayonlari nisbatan kuchli bo'lgan kishilar, «zo'r chidamlilikni, ko'p kuch-g'ayrat sarflashni talab etadigan topshiriqlarda o'zlarini yaxshi, to'la namoyon qildilar». Asab jarayonlari nisbatan zaif kishilarda ishdagi muvaffaqiyatlarning ortib borishini kasbni egallashning birinchi bosqichidagi qiyinchiliklar, topshiriqlarning qiyinligi bilan emas, balki yangi sharoitlarda vujudga kelayotgan tormozlanish bilan tushuntirish mumkin. Binobarin, faoliyatning psixofiziologik asosini o'zgartirish faqat funktsional jarayonlarga taalluqli emas, balki nerv sistemasining asosiy xususiyatlariga ham taalluqlidir.

Kasbiy layoqatlilik shaxsning sifati bo'lib, uning shakllanishi psixofiziologik tuzilishni asta-sekin mahorat darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlarni bajarishga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Bunda asab sistemasi asosiy xususiyatlarining ana shu ish turlariga mos keladigan funktsional ko'rinishlari takomillashadi, ba'zi hollarda esa asab sistemasining bir tayanch xossasidan boshqasiga o'tish ro'y beradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, boshlang'ich mahoratning nisbatan tez egallab olinishi kelgusida shu kasbda ishlash davomida paydo bo'ladigan qiyinchiliklar shunchalik tez bartaraf etilishiga kafolat bermaydi. Kasbni egallashda mahoratning qaror topishi alohida jarayon bo'lib, har bir kishining mahoratni egallash yo'lida paydo bo'ladigan qiyinchiliklar ma'lum darajada shu bilan belgilanadi.

Shaxsning fazilati sifatida kasbga layoqatlilikning shakllanishi haqida yuqorida aytilgan fikrlar oldingi zamon psixologiyasining ma'lum printsiplaridan kelib chiqadi.

Aytilganlardan kasbga layoqatlilikni aniqlash masalasini kishining o'zi mehnat (yoki o'quv) faoliyatida sinab ko'rmasdan oldin qo'yish mumkin emas, degan xulosaga kelinadi. Kasbga oid mehnat uchun zarur bo'lgan psixofiziologik mexanizmlar tarkib topmaguncha kasbga layoqatlilik (yoki layoqatsizlik) haqidagi masalani hal qilish mumkin emas. Bu mexanizmlar faqat faoliyatning o'zida shakllanishi mumkin. Kishining ba'zi bir kasblarga layoqatliligining shakllanishiga qulaylik tug'diradigan yoki uni osonlashtiradigan biror-bir tabiiy xususiyatlarni aniqlash mumkin. Tabiiy belgilarni oldindan aytish ham mehnat jarayonini va kasbga oid ta'lim berishni oqilona tashkil etishda va kasbga ko'nikishida, ko'pchilik hollarda esa mehnat faoliyatini boshlayotgan kishilar uchun aniq ish joyini tanlashda shubxasiz muhim ahamiyatga egadir.

Natijada sof amaliy nuqtai nazardan faqat so'zlar haqida gap borayotgandek tuyuladi, chunki psixofiziologik tashhiz har holda inkor qilmaydi, shunday ekan, qanday so'z tanlanishi, nimalar belgilanishi, layoqatlilikni shakllantirishning biologik shart-sharoitini tashkil etuvchi kasbga layoqatlilik yoki tabiiy iqtidorning aniqlanishi baribir emasmi?

Haqiqatda esa gap kasbga layoqatlilik mavzusining o'zini tushunishdagi tub farqlar haqida bormoqda, chunki shart-sharoitlarning mavjudligi hali kasbga layoqatlilik shakllanishiga kafolat bermaydi. Bu shakllanish o'zining psixofiziologik jihatiga ega bo'lgan alohida muammodan iboratdir. O'ziga xos asoslarga o'z talablarini qo'yadigan faoliyatning shunday turlariga kasbiy layoqatlilikning biologik shart-sharoitlarini aniqlash vaqtida buni unutmaslik kerak. Bu shart-sharoitlar layoqatlilikni shakllantirishga qulaylik tug'dirsa ham, o'z-o'zicha imkoniyatning voqelikka aylanishiga o'tishini ta'minlay olmaydi. Xuddi shuningdek kasb har qanday normal kishi uchun qulaydir, degan gap har bir kishi bu kasb sohasida mutaxassis bo'lib etishadi, degan ma'noni bildirmaydi. Layoqatlilikning shakllanish muam-molarini tushunmaslik yoki unga etarli baho bera olmaslik tufayli shunday vaziyatlar vujudga keladiki, mehnat faoliyatiga monelik

qiladigan hech qanday to'siq bo'lmasa ham kishi unga layoqatsiz deb e'lon qilinadi, haqiqatda esa uning layoqatligiga shakllanishi lozim bo'lgan shart-sharoit yaratib berilmagan.

Bunday hollar ko'pincha san'at, fan, sport, shuningdek boshqa sohalarida ham uchraydi.

Kishining tajribasi, bilim va malakalari ortib borishi bilan birga u qisman ongli ravishda, qisman tushunib etmagan holda o'zining muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo'ladigan o'ziga xos mexanizmlarni egallaydi. Tabiiyki, bu jarayonning rivojlanishi uchun muayyan vaqt kerak.

Shuning uchun ham bir faoliyatdan ikkinchisiga doimiy ravishda o'tib turish bu faoliyatlarning birortasiga ham layoqat shakllanmasligining garovidir.

Faoliyat tegishli sabablar mavjud bo'lgandagina vujudga keladi. Kasb-ko'rlik faoliyatiga undaydigan ijobiy sabablarning manbalari - bu kasbning nufuzi, mehnatning o'zidan hosil qilinadigan bevosita qoniqish, ma'naviy va ijtimoiy o'sish imkoniyatlari, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishlardir.

Kichik ijtimoiy guruh bo'lgan jamoa ham muhim ahamiyat o'ynaydi, mehnat topshiriqlari ana shu jamoa bilan birgalikda hal qilinadi.

Ijobiy sabab-faoliyatning vujudga kelishi, binobarin, layoqatlilik shakllanishining zarur shartidir. Shaxs rivojlanishining biologik shart-sharoitlari o'z-o'zicha kasbkorlik yo'nalishidan mahrumdir. Shuni eslash kifoyaki, insonning biologik tipi ko'p asrlar mobaynida o'zgarmay qolgan.

Kishilik jamiyatida esa bu davrlarda minglab xilma-xil kasblar o'zgardi, eskilari yangilari bilan almashdi. Kasbkorlik yo'nalishini jamiyatning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi va tabiiy o'ziga xos negizlar asosida turli-tuman kasb egalari shakllanadi. Nerv sistemasining asosiy xususiyatlari esa, agar ta'bir joiz bo'lsa, kasbkorlik jihatidan neytraldir.

Ayni bir vaktida nerv sistemasining har bir xususiyati va xususiyatlarning har bir majmui vazifasiga ko'ra ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lib, bir-biriga o'xshamagan turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Kishining biologik xususiyatlariga qarab uning kasbkorlik vazifasini belgilash mumkin bo'lavermaydi, ayniqsa hozirgi vaqtdagi kasblarning ko'plari doimo fan-texnika taraqqiyoti taqozosi bilan o'zgarishlar va takomillashtirishlarga duchor bo'lib turibdi. Demak, hatto oldindan aytib berishga yo'l qo'yilganda ham u yoki bu kishini aslida qanday kasbda sinab ko'rish kerakligi noaniq bo'lib qoladi, uni oldindan aytib berish paytidagi kasbkami yoki hali vujudga kelmagan kasbga tayyorlash kerakligi ma'lum bo'lmaydi.

Hal qiluvchi bo'g'in sifatida kasbga layoqatlilikni shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni, keyin esa bu sharoitlarni yaratib berishni o'rganishni hisoblash kerak bo'ladi. Bizning jamiyatda unumli mehnatda muvaffaqiyatli ishtirok etish bu jamiyatning har bir a'zosi uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ijtimoiy salmoq, o'z-o'ziga baho berish, o'z qadr-qimmatini his qilish, kasbkorlik mahorati darajasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shaxsning shakllanishining o'zi kasb egasining shakllanishi singari sodir bo'ladi, u ko'p hollarda ma'naviy boyish, o'z-o'zini qaror toptirish, burch tuyg'usini yuksak darajada his etish, ijtimoiy e'tirof etish, ma'naviy va iqtisodiy rag'batlantirishlar bilan birga boradi. Shuning uchun xam ko'p hollarda kasb-korlik jixatidan o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish kishilar ongida shaxsiy istiqbol bilan mos keladi. Bu istiqbol ijodiy mehnatda o'zining maqsadga intilishi bilan ijtimoiy jihatdan e'tirof qilingan yutuqlar o'rtasidagi bog'lanishni aniq tushunib etishga asoslanadi.

Shu narsa shak-shubhasizki, shaxsiy istiqbol mehnat faoliyatining qudratli undovchisi bo'lib, chinakam mahorat sari faol harakat qilishga rag'batlantirib turadi.

Psixologiyaning sanoat va kishloq xo'jaligidagi ko'pgina kasblarga nisbatan vazifalari faqat kasbga layoqatlilikning tabiiy shart-sharoitlarini aniqlashdangina iborat emas. Bu vazifalar layoqatlilikni shakllantirish masalalariga qaratilishi, kasbni o'rgangan har bir kishini bu sohada mustahkamlanib borishga va mahoratni qo'lga kiritishga undashi lozim. Bu jihatdan mazkur kasbda, mazkur korxonada va ayrim hollarda mazkur tarmoqda shaxsiy istiqbol yaratish muammosi jiddiy e'tibor berishga loyiq masala bo'lib qolishi mumkin.

Shuni e'tirof etish kerakki, ko'pchilik kasblarda, shartli qilib gapirganda kichik mutaxassislar kasblarida shaxsiy istiqbolni amalga oshirish imkoniyatlari unchalik to'liq ishga

solinmagan va bu sohada ko'p ishlarni amalga oshirish mumkin. Shaxsiy istiqbolning paydo bo'lishiga halaqit beradigan holatlarga kasbkorlik ichida ilgari lab borish darajasining aniq ifodalanmaganligi yoki uning mutlaqo yo'qligini kiritish mumkin. Ko'pgina kasblarda rag'batlantirish turlari kasb mahoratiga mos kelmaydi va shaxsning uzoq istiqbolini nazarda tutmaydi. Shaxsiy istiqbolning paydo bo'lishiga qiyinchilik tug'diradigan sabablardan biri moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan mazkur korxonada uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar o'rtasida bog'lanishning mavjud emasligidir. Shunday hollar ham bo'lishi mumkinki, kichik mutaxassisnii rag'batlantirish maqsadida korxona rahbariyati ixtiyorida bo'lgan barcha imkoniyatdan foydalanib bo'lingan bo'ladi, endi bu ishchi rag'batlantirish ma'nosida hech narsa kutib o'tirmasa ham bo'ladi.

Holbuki, sanoatimiz kadrlarni mustahkamlashdan, ayniqsa o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradigan kadrlarni mustahkamlashdan manfaatdordir. Ishga kelgan kichik mutaxassisning butun mehnat faolligi davriga, ya'ni 20- 30 yoki 40 yillik muddatga mo'ljallangan sistema nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Bu sistemada erishilgan favqulodda yutuqlar uchun mukofotlar ko'zda tutilishi lozim. Bu faqat kasb tajribasi va mahorati eng yuksak darajada egallangan, kasbga layoqatlilikning eng yuqori rivojlangan davrida sodir bo'lishi, shuningdek ishlab chiqarish sohasida va jamoat a'zosi sifatida o'z vazifalarini uzoq yillar mobaynida nuqsonsiz ado etgandan keyin yuz berishi mumkin.

Psixologlar, iqtisodchilar, sotsiologlar, kasb ta'limi va xodimlarning malakasini oshirish sohasidagi mutaxassislar, shifokorlar va boshqalar bilan birgalikda ma'naviy-ruhiy va iqtisodiy rag'batlantirish sistemasini ishlab chiqishlari lozim. Bunda mazkur kasbdagi ish stajiga muvofiq ravishda mehnat unumdorligi va sifat bo'yicha muayyan marralarga erishish asos qilib olinishi kerak. Natijada bu kasbga kirayotgan shaxs o'zining istiqboli ma'lum yil ishlagandan keyin qanday bo'lishini, qanday ishlab chiqarish natijalarini qo'lga kiritishi mumkinligini yaqqol tasavvur qilsin. Ish stajining ko'payishi va kasb mahoratida yangi pog'onaga ko'tarilishlar bundan keyingi rag'batlantirishlarni ham talab qiladi. Pirovard natijada xodimning shaxsiy istiqboli alohida hujjatga-karta yoki shaxsiy istiqbol varaqasiga asoslanishi, u kasbkorlikdagi yutuqlar bilan rag'batlantirishlarning aloqasini aniq shaklda nazarda tutishi kerak.

Shaxsiy istiqbol g'oyasini amalga oshirishda ish shunday tashkil etilishi kerakki, ishlab chiqarishda yutuqlarga erishish uchun ko'rash olib borish faqat xodimning o'z shaxsiy ishi deb qaralmasligi lozim. Chunonchi, maxsus ta'lim va malaka oshirishning har qanday pog'onalari zarur ishlab chiqarish darajasiga yaqinlashtirilishini belgilab olish zarur. Lekin hal qiluvchi narsa shaxsiy kuch-g'ayrat sarflash bo'lib qolaveradi. Bularsiz mahoratni oshirish rejalari va undan keyin keladigan rag'batlantirishlar maqsadsiz bir narsa bo'lib qoladi.

Biroq xamma narsa uchun umumiy bo'lgan kasbiy kamolotga erishish yo'li yo'q.

Har kim o'zining shaxsiy tabiiy iqtidori bilan eng ko'p darajada bog'langan, egallangan bilim va ko'nikmalari bilan uyg'unlashib ketgan yo'ldan borishi kerak.

5 -Mavzu: O'zbekiston xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari

Reja:

- 1.Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: Xalq xo'jaligida kasblar va ularning malaka tavsifnomalari.
- 2.Xalq xo'jaligidagi kasblar va ularning malaka tavsifnomalari.
- 3.Kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi.

Tayanch so'zlar:Xalq xo'jaligi. Tarmoqlar. Kasblar tavsifnomalari.Kasblar va ixtisosliklar

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning birinchi asosiy manbai hisoblanadi. Sanoat geografiyasi iqtisodiy geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, sanoatning xududiy joylashishini, turli davlatlar va rayonlarda sanoatning joylashish qonuniyatlarini, sharoitini va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Sanoat geografiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sanoat rivojlanishiga sezilarli ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tavsiflash; sanoat rayonlari, tugunlari va markazlarining shakllanish omillarini o'rganish; ayrim sanoat tarmoqlarining xolatiga va joylashishiga ta'sir etadigan texnik-iqtisodiy sharoitni tadqiq qilish;tarmoqlararo va rayonlararo aloqalarni o'rganish; mamlakat xalq xo'jaligida va iqtisodiy rayonlar shakllanishida sanoat joylashishiningahamiyatini aniqlash.

Harqanday mamlakat sanoatining asosini industrlashtirish darajasi tashkil qiladi.

Industrlashtirish deganda ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida fan va texnikaning yutuqlaridan foydalanib, zamonaviy korxonalar qurib, rivojlangan sanoatni tashkil qilish tushuniladi. Industrlashtirish muayyan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga va xalqaro vaziyatga bog'liq.

Dastlab industrlashtirish Buyuk Britaniyada amalga oshirildi. Bu yerda industrlashtirish to'qimachilik sanoatda qo'l mehnatini mashinalashtirishdan boshlandi, keyin og'ir sanoatni industrlashtirish amalga oshirildi. AQSH, Germaniya va boshqa davlatlar Buyuk Britaniya tajribasidan foydalanib to'qimachilik sanoatini industrlashtirishdan tezlik bilan og'ir sanoatni mashinalashtirib, markazlashgan ishlab chiqarishni tashkil qildilar.

Sanoatni (ishlab chiqarishni) tashkil qilishning asosiy shakllari (markazlashuv, kombinatlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlashuv) 4.3. bo'limda ko'rib chiqildi. Endi sanoatning tarkibiy qismlari va to'zilisini ko'rib chiqamiz.

Sanoat og'ir va yengil sanoatga bo'linadi. Og'ir sanoat asosan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan tarmoqdardan iboratdir, ya'ni unda mehnat qurollari (mashinalar, jixozlar va h.k.) va mehnat predmetlari (xom ashyo, yoqilg'i va h.k.) ishlab chiqariladi.

Og'ir sanoat mehnat predmetlarini (foydali qazilmalar, yog'och, gidroenergiya resurslari) tabiatdan oladi. Shuning uchun uning katta qismini undiruvchi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Uning qolgan katta qismini esa ishlov berish sanoati tarmoqlari (qora va rangdor metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, elektronika va h.k.) tashkil qiladi.

Og'ir sanoatda ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish («A» guruh) bilan birga iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi («B» guruh). Shuning uchun og'ir sanoat maxsulotlari faqat sanoatda emas, balki aholining kundalik turmushida ham ishlatiladi.

Yengil sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishning ikkinchi bo'limiga («B» guruhi) kiruvchi keng xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlar guruhidan iborat. Asosiy tarmoqlari: ip-gazlama, zig'ir, jun, trikotaj, teri, poyafzal, mo'ynachilik, mebel, galanteriya va boshqalar.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, sanoat yana undiruvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga ham bo'linadi.

Undiruvchi sanoat turli xil xom ashyo va yoqilg'ini qazib oladigan hamda tayyorlaydigan tarmoqlardan iborat. Ushbu sanoatning asosiy tarmoqdari quyidagilardan iborat: tog'-kon sanoati, yog'och tayyorlash, baliqchilik, ovchilik va boshqalar. Tog'-kon sanoati foydali qazilmalarni qidirish, qazish va boyitish bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Unga quyidagilar kiradi: yoqilg'i-energetika xom ashyosi, qora va rangli, qimmatbaho, kamyob hamda radioaktiv metall rudalari, tog'-kimyo (apatitlar, fosforitlar, kaliy tuzlari, oltingugurt) xom ashyosi va qurilish materlarini qazib olish. Tog'-kon sanoati kon sanoatining tarkibiga kiradi. Kon sanoati o'z navbatida tog'-kon va qayta ishlash sanoatini o'z ichiga oladi.

Xom ashyoga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmog'i ishlov beruvchi sanoat tarmog'i deb ataladi.

Xom ashyo asosan tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi, urmon xo'jaligi, baliqchilik va boshqa tarmoqlarda qazib olinadi va tayyorlanadi. Xom ashyo sintetik yo'l bilan ham olinadi.

Ishlov beruvchi sanoatga quyidagilar kiradi: mashinasozlik metalga ishlov berish, qora va rangli metallurgiya neftni qayta ishlash, kimyo, elektrotexnika elektron yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qog'oz ishlab chiqarish, to'qimachilik, tikuvchilik poyafzal, un, qand, konserva va boshqa sanoat tarqalmoqda.

Sanoatda ishlab chiqariladigan maxsulot tan narxining asosi qismini xom ashyoga va unga ishlov berishga ketgan sarf-harajatlarni tashkil qilsa, bundan sanoat ko'p mablag' (material) talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi.

Unga sanoatning quyidagi tarmoqlari kiradi: toqimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat, mashinasozlik va kimyo (fosforli va kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish) sanoatining ko'p tarmoqlari kiradi. Masalan, tikuvchilik harajatlarning 80 foizdan ortig'ini, oziq-ovqat sanoatida harajatlarning 80 foizini xom ashyo tashkil qiladi. Ayrim mablag' (materialni yoki xom ashyoni) ko'p talab qiladigan tarmoqlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Maxsulot tan narxida energiya sarf-harajatlari katta bo'lgan ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Masalan, alyuminiy ishlab chiqarish, qotishmalar ishlab chiqarish va h.k.

Sanoatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: energetika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, o'rmon, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va maxalliy sanoat. Hozirgi paytda sanoatning elektronika va mikrobiologiya sanoati kabi eng yangi tarmoqlari ham shakllangan.

Sanoat ishlab chiqarishning joylashishiga qarab sanoat rayonlari, tugunlari va markazlariga ajratiladi.

Bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari to'plangan shahar yoki shaharcha sanoat markazi deb ataladi. Ko'p xollarda sanoat markazi ishlab chiqarishni yirikligi bilan ajralib turadi. Sanoat markazi ba'zi xollarda faqat industrial emas, balki transport vazifasini ham o'taydi.

Bir-biri bilan o'zaro bog'langan ishlab chiqarishkorxonalari to'plangan xudud sanoat tuguni (o'zeli) deb ataladi.

Sanoat tuguni bitta shahar doirasida ham bo'lishi mumkin, ko'p xollarda u bir necha shaharlardan yoki ishchi shaharchalari bilan o'ralgan shaharlar tizimidan iborat bo'ladi. Sanoat tuguniga kirgan korxonalar yagona transport tarmog'idan, energiya va suv ta'minotining umumiy manbalaridan birgalikda foydalanadi (ba'zan xom ashyo resurslari ham umumiy bo'ladi), mehnat resurslarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, korxonalar eg'allaydigan maydonlarni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari — sanoat korxonalarini joylashtirishning ilg'or usulidir.

Sanoat tugunlari va markazlari to'plangan xududlar sanoat rayonlari deb ataladi. Maxsulot ishlab chiqarishda u yoki bu sanoatning salmog'iga qarab, undiruvchi sanoat yoki ishlov beruvchi sanoat rayonlari ajratiladi. Ularning katta-kichikligi har xil bo'ladi.

6-Mavzu. Kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish, kasblar va ularning turlari.

Reja:

1. Kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish.
2. Kasblarning tiplari va turkumlari.
3. Kasblarning bo'limlari va gruppalari.
4. Kasb tanlash formulasi.

Tayanch so'zlar: Kasblarning tiplari, turkumlari, guruhlar. Kasb tanlash formulasi

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishiga fan-texnika yutuqlarini iqtisodiy soxaga tatbiq etish asosida erishish mumkin. Buning uchun, o'z navbatida, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Konuniva «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va unda kursoratlanganidek fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro faol aloqasini ta'minlashni takozo etadi.

Ilmiy texnika taraqqiyot natijalarini ishlab chiqarishga, xo'jalik yuritish soxasiga kirib borish ko'pxatdanta'lim saviyasiga, kadrlar salohiyatiga, ayniqsa, yoshlarga, ularning faolligiga, o'z kasblarini naqadaregallaganliklaridara jasigabog'liqdir.

Tarix 3 asosiy global bosqichlarga bo'linadi: «qishloq ho'jalik davri», «sanoatlashtirilgan davr» va «sanoatlashgan davrdan keyingi davrlar». Shu davrlar mobaynida jamiyat rivojlanishi bilan bir qatorda kasblar va ularning turlari o'zgarib bordi. Kasb o'zi nima?

Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar quyuvchi faoliyat turidir.

Xar bir faoliyat turining bir – birlariga bog'liq o'xshashlik tomonlari bor, bular:

- 1) **mexnat predmeti;**
- 2) **mexnat maqsadi;**
- 3) **mexnat vositalari;**
- 4) **mexnat sharoitlari;**

Mehnat predmetiga ko'ra kasblar 5 ta turga bo'linadi:

1. Agar asosiy mehnat predmeti – bu o'simlik, xayvon yoki mikroorganizmlar bo'lsa (flora va fauna) bunda kasb turi «Odam-tabiati» yoki qisqacha «O - T». Mana shunday kasbga misollar: mikrobiolog, qorako'lchi, uzum teruvchi, keng ixtisosli traktorchi-mashinist, veterinar-feldsher, qoramolchilik majmuasi va mexanizatsiyalashgan fermalar operatori, gulchi, davlat urug'chilik inspeksiyasi laboranti, kimyo-bakteriologik tahlil laboranti.

2. Agarda asosiy, yetakchi mehnat predmeti – texnik sistemalar, ashyoviy obyektlar, materiallar, energiya turlari bo'lsa, bunda bu kasblar «Odam-texnika» yoki qisqacha «O - T» turiga kiradi. Bu xil kasb turlariga misollar: dasturli boshqaruv stanoklar operatorlari, qurilish materiallari zavoda pult boshqaruvi operatori, radioelektron apparatlari va priborlar montajchisi, trolleybus xaydovchisi, mexanik yig'uv ishlari, slesar qo'l bilan yoki mashinada parmalash parmalovchisi, egiluvchan ishlab chiqarish tizimlari sozlovchisi, po'lat quyuvchi, injener-fizik, temir beton konstruksiyalari montajchisi, tokar, poyafzalni yuqorigi qismini tayyorlovchi, to'quvchi, konditer, duradgor.

3. Agar mehnatni asosiy, yetakchi predmeti-insonlar, guruxlar, jamoalar bo'lsa, bunda bu xil kasb turi «Odam-odam» (qisqacha «O- O») deb ataladi. Bu kasb turiga misollar: o'qituvchi, menejer, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, sanoat mollari sotuvchi – maslahatchisi, yo'lovchi vagon passajiri, styuardessa, ekskursiyachi va ko'plab boshqalar.

4. Agar mexnatni asosiy, yetakchi predmeti-shartli belgilar, rakamlar, kodlar, tabiiy va sun'iy tillar bo'lsa, bunday kasb turlari (Odam-belgilar tizimi) (qisqachasiga O-BT) deb ataladi. Bunday kasblarga misollar: supermarketning nazoratchi-kassiri, buxgalter, iqtisodchi, elektron xisoblash mashinalarining operatori, programmachi, korrektor, stenografist-mashinistka,

chizmach, kartograf, tipograf, kutubxonachi, tarjimon, telegrafchi, matematik, geodezist va boshqalar.

5. Agar mehnatni asosiy yetakchi predmeti – badiiy obrazlar, ularni qurilish shartlari, bunday kasb turlari «Odam – badiiy obraz» («O – BO») deb ataladi. Bunday kasb turlariga: kiyimlar, bo'yicha konstruktor – modelyer, chinni buyumlar bo'yicha muyqalamchi, ganch bo'yicha o'ymakor, rassom-bezatuvchi, quruvchi-bo'yovchi va x.k.lar kiradi.

Mehnatning maqsadiga qarab xar bir kasblar sinflariga bo'linadi:

G – gnostik kasblar;

U – o'zgaruvchan kasblar;

I – izlanuvchan kasblar;

Mehnat vositalariga qarab quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

K – qo'l mehnatiga oid kasblar;

M – qo'l (pichoq) bilan boshqariladigan mashinalardan foydalaniladigan kasblar;

A – avtomatlashtirilgan kasblar turlari;

F – funksional mehnat vositalarini egallagan kasblar;

Mehnat sharoitlariga ko'ra kasblarning guruxlari:

Mehnat sharoitiga ko'ra kasblar to'rt guruxga bo'linadi:

Oddiy maishiy sharoitlardagi mehnat. Bu kasbdagilarni qisqacha «M» deb belgilanadi. Bunga: buxgalter, chizmach, kutubxonachi, tokar va ko'plab boshqalar kiradi.

Ochiq xavodagi mehnat. Mavsumiy va xaroratning, namlikning, kunlik pasayishi sharoitida o'tadi («O» guruxi). Bunday kasblarga qator qurilish (toshchi, qurilish duradgori, temir beton konstruksiyasilar, montajchisi) qishloq ho'jalik kasblari (ko'chat yetishtiruvchi, dalachi, cho'pon) va boshqatarmoq kasblari (masalan, davlat avtomobil inspektori) kiradi.

Noqulay sharoitlardagi mehnat yer tagidagi, yuqoridagi, suv tagidagi, shuningdek yuqori xarorat sharoitidagi, namlikdagi va boshqalar (bu gurux kasblari «N» xarf bilan belgilanadi). Kasblarga misollar: shaxtyor, montajchi, suv ostida suzuvchi, po'lat quyuvchi, uchuvchi, metro quruvchi va x.k.z.

Yuqori ahloqiy va moddiy javobgarlikdagi mehnat (salomatlik uchun javobgar, tarbiya berish, inson xayoti, katta moddiy va jamoatchilik boyliklari uchun javobgar). Bu gurux kasblari qisqacha «M». Ularga o'qituvchi, shifokor, hakam, uchastka inspektori, sotuvchi, mehnatni qo'riqlash va texnika xavfsizligi injeneri va x.k.z.

Kasblarning manzili.

Xamma kasblar dunyosi (planetasi) kasblar dunyosini biz kasblarning turiga qarab 5 ta davlatga bo'lsak:

T – tabiat

Tex. – texnika

O – odam

BT – belgi tizimi

BO – badiiy obraz (timsol)

Mehnatning maqsadiga qarab xar bir mamlakatni 3 ta viloyatga (oblastga) bo'linadi:

G – gnostik (bilish) kasblar;

U – o'zgartiruvchi kasblar;

I – izlanuvchilik kasblari;

Xar bir viloyat mehnat quroliga qarab 4 shaharga (rayonga) bo'linadi:

K – qo'l mehnati kasblari;

M – qo'l mehnati bilan boshqariladigan mashinalardan foydalanadigan kasblar;

A – avtomatlashtirilgan mehnat kasblar;

F – funksional mehnat qurollari bilan egallangan kasblar;

Xar bir shaharda (rayionda) mehnat sharoitiga qarab (kasblar guruxlari) 4 ko'cha belgilangan:

- M – maishiy sharoitlar;
- O – ochiq xavodagi ishlar;
- N – noqulay sharoitlardagi ish;
- MA – yuqori javobgarlikdagi ish;

Ekskursiyalar, olimpiadalar, ko'rik-tanlovlar ommaviy tavsifga ega bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga ijodiy mehnat qilish hissini uyg'otishga, chuqur va turg'un o'quv va kasbiy qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradigan muhim vositalardir. Bunda V – IX sinflarda o'quvchilarni kasblar bilan keng va puxta tanishtirilishi, qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ularning muayyan faoliyat turiga bo'lgan barqaror qiziqishlarini farqlash, kasbga oid guruh tarzida va yakka tartibda maslahatlar o'tkazish, IX-sinfni tamomlagandan keyin maxsus o'quv yurtlariga o'qishga bering xohlovchi o'quvchilarni o'quv yurtini tanlashda ko'maklashishi lozim.

O'quvchilarning turli kasb-hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda ta'limning asosiy shakli hisoblangan dars bu boradagi vazifalarining barchasini hal eta olmaydi. Shunday ekan, o'quvchilarni kasb tanlash, kasb-hunar asoslarini o'rganishga yo'naltirish maktabdan tashqari o'quv ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ommaviy axborotlar katta ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatlarda o'quvchi-yoshlarning vaqtini to'g'ri tashkil qilish, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilishi bilan birga ularning dars jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini qaror toptiruvchi jarayon sanaladi.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga asoslarini o'rganishga qiziqtirish va ma'lum kasb (yoki hunar) yo'nalishi bo'yicha mustaqil faoliyat olib borishga tayyorlashda turli kasb egalari ishtirokida tashkil etilgan uchrashuvlar, turli kasblar va ularni mohiyatini yorituvchi badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar ko'rgazmasini tashkil etish, mehnat faxriylari va qahramonlarining hayoti va faoliyati to'g'risida hikoya qiluvchi materiallarni jamoa asosida o'rganish, bu boradagi san'at asarlari (kinofil'm, teatr va h.k.) bilan tanishtirishni yo'lga qo'yish samarali omil bo'la oladi. Nihoyat o'quvchilardan so'rash ko'rsatganidek bu sohada ommaviy axborot vositalari: vaqtli matbuot, radio, televidiniye katta rol o'ynaydi.

Ota – bobolarimizning ming asrlar davomida to'plagan tajribalariga asoslanadigan bo'lsak, farzandlarimizga avval hunar o'rgatish, keyin ta'lim berish lozimligini aytganlar. Rivoyatlarda aytishlaricha, bir kishi farzandini madarasaga olib boribdi. Ota domlaga qarab: «U hali yosh-ku, hunari yo'q», - deb javob beribdi, shunda domla: «Avval o'g'lingiz hunar o'rgansin, keyin ilm o'rgataman», - degan ekan.

Hozirgi kunda maktab ta'limi o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri mehnat ta'lim-tarbiyasi jarayonida o'quvchilarga hunar o'rgatishning milliy, an'anaviy asoslarini ishlab chiqarish ularni amaliyotga tadbiq etishdir.

Buning uchun avvalambor: «Hunar nima»? «Hunar, hunarmand, hunarmandchilik deganda nimani tushunasiz»? – degan savollarga javob berishingizga to'g'ri keladi.

Hunar – insonning muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan mehnat faoliyatidir.

Hunarli – biror hunarni puxta egallagan shaxs.

Hunarmand – biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta.

Hunarmandchilikning asosiy belgilari: biror ishning oddiy mehnat qurollari yordamida bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibdalligidir.

Sinfdan tashqarii sharoitda olib boriladigan ishlar o'quvchilarning qiziqishi, xohish va istaklari asosida tuzilsa quyidagi natijalar qo'lga kiritiladi:

- o'quvchilarning ahloqiy sifatleri boyiydi, ularning tafakkur darajasi kengayadi, ularda ma'lum kasb-hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi;

- o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi yuzaga keladi;

- o'quvchi – yoshlarning dunyo qarashi kengayib, ularda ijodiy mehnat qilish tuyg'usi tarbiyalanadi.

- o'quvchilarda shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlari borasidagi, shuningdek, jamiyat talablariga javob bera oladigan kasblarni tanlash istagi yuzaga keladi.

Sinfdan tashqari sharoitda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari quyidagi talablar asosida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- sinfdan tashqari to'garak ishlarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda, o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, hohishi, yosh xususiyatlari, ijtimoiy tayyorgarlik darajasi hamda tajribasi hisobga olinishi zarur;

- sinfdan tashqari sharoitda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish to'garak ishlarini tashkil etishda ularning mustaqil faoliyat yuritishlari, ijodiy fikrlashlariga erishish muhim;

- o'quvchilar tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarini alohida qayd etib borish, ularni Rag'barlantirish hamda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatishlari uchun imkoniyat yaratishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

7-Mavzu: Kasb-hunarga yo'naltirishda o'quvchilarga qo'yiladigan talablar.

1. Qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar.
2. Salomallik va kasb. Kasbga yaroqlik.
3. Kasb tanlashda onglik va mustaqillik.
4. O'z-o'zini tarbiyalash va kasb tanlash.

Tayanch so'zlar: Qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar. Salomallik kasbga yaroqlik. Onglik va mustaqillik. Kasb tanlash.

V-IXsinfo`quvchilarinikasbtanlashga, mustaqilhayotyo`linitanlashgatayyorlashkerakmi?
O`nbesho`nolтийoshlio`smirhisoblanganto`qqizinchisinfo`quvchisio`zmayllarinivamehnatga
bo`lganqiziqishlariniazmi-ko`pmianiqbelgilabolishilozim.

Maktabyoshavlodgabarvaqtkasb-hunaro`rganishprintsipiniradetib,
o`quvchilarningshaxsiyiste'dodnishonalarivaqiziqishlarinihartomonlamarivojlantirishgaintiladi,
maktabo`quvchilaridajamiatganafkeltiradiganfaoliyatgaqiziqishni,
kasbtanlashgatayyorlashhuchunnegizbo`libxizmatqiladiganqiziqishnitarbiyalaydi.
Buesamehnattarbiyasiningengmuhimvazifalaridanbiridir.

Maktabo`quvchilargafanasoslaridanmustahkambilimberishi,
ulardadunyoqarashnihamdaishharakatvahulq-
atvordaumuminsoniyyo`nalishlarnishakllantirishilozim.

Darhaqiqat, maktabo`smirlarningshaxsiykiziqishlari,
iste'dodkurtaklarivaqobiliyatlarinishakllantirishgaqaratilganxilma-xilishlarnitashkilqilib,
bolashaxsinihartomonlamarivojlantirishgako`maklashadi,
sevimliishnianiqlabolishgayordamberadi.

Xo`sh,
maktabo`quvchilariningkasbkorlikmasalasiniuvaffaqiyatlilhalqilishhuchunbarchazarurma'lumotl
arberadoladimi, harbiro`quvchidakasbtanlashmuammosigapuxtao`ylabmunosabatdabo`lishhis-
tuyg`usinitarbiyalayoladimi, shumuummonihalqilishningto`g`riyo`llariniko`rsatibberabiladimi?

Afsuski, xozirgi vaqtda ko`pgina maktablar ana shu vazifaki eplay olmayaptilar. Tukizinchi
sinflarning o`quvchilarigina emas, balki bundan yuqori sinflarning kasb-hunar kollejlari va
akademik litsey o`quvchilari ham kasb tanlash masalasiga ko`pincha chuqur o`ylab, jiddiy
munosabatda bo`lmayaptilar. Ko`pgina maktablarda «Men kim bo`lmoqchiman» mavzuida
o`tkazilgan anketa va ro`znoma sahifalarida hamda boshqa vositalarda iste'dod mavzuida davom
etayotgan munozara ana shundan dalolat bermoqda.

O`quvchilarning qaytargan javoblarini tahlil qilish shuni ko`rsatadiki, ularning kelgusida
egallashi mumkin bo`lgan kasblari sinfdan-sinfga o`tishlari bilan o`zgarib turadi.

Ko`pincha o`quvchi o`zining fiziologik, psixologik yoki aqliy imkoniyatlariga batamom
mos bo`lmagan kasb to`g`risida orzu qiladi. Shunday hollar ham bo`ladiki (bunday hollar kam
emas), maktab o`quvchisi kelgusida kim bo`lishini umuman bilmaydi, buni oldindan o`ylab ham
ko`rmagan.

Biroq, o`smirlarning «Men kim bo`lishni xohlayman» degan savolga qaytargan javoblari
qanchalik xilma-xil bo`lmasin, boshqa bir narsa orzu qilinayotgan kasblar to`g`risida ularning
g`oyat noaniq tasavvurlari va kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko`rish munosabati
bilan o`z burchlari haqida muayyan tasavvurga ega emasliklari fikr yuritishga majbur etmokda.

Ko'pgina o'quvchilar o'z insholarida bo'lg'usi kasbga tayyorgarlik ko'rish borasida hozircha hech bir ish qilmayotganliklarini oshqora yozmoqdalar. Ularning ba'zilari u yoki bu kasbga tayyorgarlik ko'rish uchun umuman nima qilish kerakligini aytib o'tishga urinadilar-u, lekin o'zlari nima qilayotganliklari haqida lom-mim demaydilar.

Odatda javoblar quyidagichadir: «Shifokorning irodasi kuchli bo'lishi, qo'llari yumshoq va muloyim bo'lishi lozim, men esa shifokor bo'lish uchun ko'p narsani bilishim va hamma narsani qila olishim kerak»; yoki:

«O'qituvchi, shifokor yoki muxandis bo'lish uchun yaxshi o'qish, beadab, halol, intizomli bo'lish kerak, biz hammamiz bunga erishishimiz zarur».

Bundan ham umumiy tarzdgai javoblar bor. Bu javoblarda shunday deyilgan: «U yoki bu kasbni egallash uchun uzoq vaqt davomida astoydil ishlash kerak» yoki: «Buning uchun esa ko'p narsani bilish lozim, demak yaxshi o'qish zarur».

Ammo shunday o'quvchilar ham borki, ular u yoki bu kasb to'g'risida orzu qilibgina qolmay, balki bu haqda ko'p narsalarni bilishga ham intiladilar, shu kasb bilan bog'liq bo'lgan kitoblarni o'qiydilar. Biroq, ular zarur adabiyotni ko'pincha tanlab olishni bilmaydilar, tasodifiy kitoblarni o'qiydilar, ularni o'qigan chog'larida nimaga z'tibor berish kerakligini bilmaydilar.

Chunonchi, ularning ba'zilari insholarida ko'p kitob o'qiyotganliklarini umumiy tarzda bayon qiladilar, boshqalari esa «barcha fanlarga oid» yoki muayyan fan bo'yicha, masalan, fizika, kimyoga doir adabiyot o'qiyotganliklarini aytadilar. Birmuncha aniq javoblar ham bor: «Salomatlik to'g'risidagi oynomani o'qidim», «Opamning IX sinf uchun mo'ljallangan astronomiyaga oid darsligini o'qiyman, ko'p narsalarii tushunmayapman, ro'znomalarda bosilayotgan raketa, yo'ldosh haqidagi habarlarni o'qiyman» (astronom bo'lishni orzu qiladi), «Bolalar haqidagi va bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarni o'qiyman» (o'qituvchi bo'lmoqchi), «Adabiyotga oid kitoblarni o'qiyman», «Dvigatellar to'g'risidagi adabiyotni o'qiyman» va hokazo.

Ko'pgina o'quvchilar kasblar bilan tanishishni shu kasblar haqidagi adabiyotni o'qish bilan cheklaydilar, mazkur faoliyatga bo'lgan o'z qobiliyatlari va qiziqishlarining barqarorligini tekshirib ko'rish uchun maktabda shunga o'xshash narsalar bilan shug'ullanishga urinib ko'rmaydilar, u yoki bu kasb uchun zarur bo'lgan o'z qobiliyatlarini qanday qilib rivojlantirish va boshqarish kerakligini bir tomonlama, sodda tasavvur qiladilar.

Biroq shunday o'quvchilar ham borki, ular bo'lg'usi kasb to'g'risida ko'proq narsalarni bilishga harakat qilib qolmay, balki unga amaliy tayyorgarlik ko'rishga ham urinadilar. Bunday o'quvchilar turli to'garaklarda, xilma-xil ijtimoiy foydali ishlarda qatnashadilar.

Xo'sh, maktab o'quvchilarining kasb tanlashdagi xatolari nimalardan iborat, bulardan eng tipiklari qanday?

1. O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi.

Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug'ullanayotgan ishga ham o'tadi. Binobarin, o'smir unga taqlid kilish yo'lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi.

Badiiy adabiyotlardagi, kinofilmlardagi qahramonlar ko'pincha ana shunday munosabatni tug'diradi, tanish-bilishlardan, qarindosh-urug'lardan biron-tasi, chunonchi o'qituvchilar taqlid qilish uchun ko'pincha namuna bo'lib xizmat qiladilar.

Taqlid qilish uchun o'qituvchi namuna bo'lgan chog'da o'quvchi unga bo'lgan yaqinligi, mehribonligini u o'qiyotgan fanga ham tatbiq etadi. Shunday ham bo'ladiki, masalan, o'quvchida biologik fanlarga bo'lgan qiziqish, havas aniq-ravshan ko'rinib turadi, lekin unga adabiyot o'qituvchisi yoqqanligi uchun u o'zining butun fikr zikrini adabiyot bilan bog'laydi.

2. O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha bo'lg'usi kasbini belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi.

U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqtiruvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. Kasbning tashqi jihati bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu - mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar.

Chunonchi, geolog kasbida o'quvchilarni ko'pincha sayohat qilish imkoniyati qiziqtiradi, ammo ular geologning kundalik og'ir ishini: uzoq vaqt davomida mashaqqatli kuzatishini, juda aniq o'lchashlar bilan shug'ullanish zarurligini, turli joylarda o'sha bir xil qidiruv ishini oy sayin takrorlash kerakligini esdan chiqarib qo'yadilar yoki bilmaydilar.

Uchuvchi kasbi esa ko'pincha turli jasadlar, odatdan tashqari tez parvozlar, qahramonona qutqaruv ekspeditsiyalari, dadil uchishlar va shu kabilar haqidagi tasavvurlar bilan bog'langan. Holbuki, uchuvchilar avvalo va hammadan ko'proq yo'lovchi, yuk va bagaj tashish bilan shug'ullanadilar, uchuvchining faoliyati esa haydovchining ishini eslatadi.

O'quvchilar u yoki bu kasb to'g'risidagi o'z romantik tasavvurlarigagina amal qilib, kasb egallashga o'zlarini chinakam tayyorlamaydilar va maxsus o'quv yurtlarida yoki tajribada kasb qiyinchiliklariga duch kelganlarida ko'pincha hafsalalari pir bo'ladi.

4. Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudligi navbatdagi kamchilikdir. Yoshlarimiz, odatda, engil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun etarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar.

Qiyim tikishda zo'r qobiliyat ko'rsatayotgan qiz qanday bo'lmasin shifokor bo'lishni orzu qilishini, dastgohda yuksak mahorat bilan ishlayotgan yigit tokarlik kasbi haqida eshitishni ham istamayotganligi singari faktlarni ayni shu narsa bilan izohlash mumkin.

5. O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. O'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. Shu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

Shunday hollar ham bo'ladiki, o'smir chizgan surat va rasmlar o'rta meyyor bo'lsa ham u zo'r berib rassom bo'lishga yoki matematikani yaxshi bilmasa ham san'at kasb-hunar kollejariga o'qishga kirishga harakat qiladi.

Afsuski, bunday hollar kam emas. Ana shunday yoshlar turmushda omadsizlarning, notavon xodimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

6 O'quvchilarning bu yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaslik. Masalan mayda ish (Uz. DEU, Fayz-xolding, Uzavtotexxizmat, aniq asbobsoz ishlab chikarish korxonasi va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, o'smir geolog bo'lishni xohlasa ham lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va erdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonlarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga qabul qilmaganlarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

7. O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash. O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaydi chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. Shu tariqa o'quvchi «Men ular bilan birga bo'laman, chunki menga baribir» deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi: noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqitirmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

8. Tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash. Ba'zan o'smir mexanika ishlab chiqarish korxonasi xonadonimizga yaqin bo'lgani uchun chilangar bo'lib ishga kirdim, deydi. Ammo o'zi bu kasbni uncha yoqtirmaydi. Pedagogika yo'nalishdagi o'quv muassasiga kirishga konkurs uncha katta bo'lmaganligi yoki keyinchalik boshqa oliy o'quv yurtlariga o'tqazib ketaman degan fikr bilan bilim dargohida o'qishga qaror qildim, deyishadi ayrim yoshlar. Biroq ular o'qituvchi bo'lishni hayollariga ham keltirmagan bo'ladilar.

Ba'zan yigit yoki qiz laborant bo'lib ishga kirdim, chunki tanishlarim yordam qildi, deyishadi. Lekin bu ishning o'ziga manzur bo'lish-bo'lmasligini sira ham o'ylashmaydi.

O'smirlarning etarli darajada tajribaga ega bo'lmaganliklari va katta yoshdagi kishilarning durust, malakali yordam bermaganliklari oqibatida kasb tanlashdagi bunday xatolari oldini qanday qilib olish mumkin?

Bunga faqat bir xil javob berish mumkin: bu borada katta yoshdagi kishilar bir maqsadga qaratib, muttasil, malakali yordam berishlari kerak.

O'smirlar esa ana shu yordamga tayanib, kelgusidagi hayot yo'li to'g'risidagi masalani mustaqil hal qilishlari lozim. Ommaviy maktab sharoitida ana shunday yordamni tashkil qilib, uning quyidagi asosiy vazifalarini nazarda tutish kerak:

-VIII -IX sinflarning o'quvchilarida kasb tanlash masalasiga jiddiy va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

- o'smirlarning, qiziqishlari va qobiliyatlarini, fiziologik va psixologik xususiyatlarini hamda -imkoniyatlarini o'rganish, har bir o'quvchi o'z hayotini bag'ishlashni istaydigan faoliyat sohasini belgilab olishida unga yordamlashish;

- V-IX sinflarning o'quvchilari ana shu sinflarda to'rt yil mobaynida ta'lim olgan chog'larida ularni xalq xo'jaligimizning asosiy kasblari bilan asta-sekin tanishtirish, ularda

asosiy kasblarning sohibi bo'lgan odamlar faoliyatining xususiyatlari to'g'risida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish, hozirgi vaqtda davlat, viloyat, tuman g'oyat muhtoj bo'lgan ommaviy kasblarga katta qiziqish uyg'otish lozim. Buning uchun har bir o'quvchini qiziqtiradigan kasb bilan chuqur tanishtirish, tanlab olinadigan mehnat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan malaka va xislatlarni hosil qilish, shu kasbga barqaror qiziqishni, tanlangan faoliyatga o'xshash bo'lgan ishda o'z imkoniyatlarini maktabdayoq tekshirib ko'rish istagini tarbiyalash yuzasidan puxta ishlashni tashkil qilish zarur.

Korxonalar va tashkilotlar, jamoa xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari mustaqil iqtisodiy munosabatlarga o'tishi va ularda mulkchilikning muayyan turi tashkil qilinishi hamda ishning boshqa shakllari joriy etilishi tufayli kasbga yo'naltirish muammolariga munosabatlarni o'zgartirish to'g'risidagi masala ham ko'ndalang bo'lib qolyapti. Shunga muvofiq tarzda kasbga yo'naltirish vazifasi va V-IX sinflarda o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ishi ham boshqacha tashkil etilishi lozim. Bunda barcha o'quvchilar kasblar bilan keng va puxta tanishtirilishi, qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ularning muayyan faoliyat turiga bo'lgan barqaror qiziqishlarini aniqlash, kasbga oid guruh tarzida va yakka tartibda maslahatlar o'tkazish, IX sinfni tamomlagandan keyin maxsus o'quv yurtlariga o'qishga kirishni xohlovchi yoshlarning o'quv yurtlarini tanlashida ko'maklashish lozim.

Yangi iqtisodiy tafakkur hukm surgan hozirgi sharoitda kasbga yo'naltirishda tarbiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatini va bu sohada olib borilayotgan ishni umuman shaxsni shakllantirish ishining bir qismi hisoblanadi. Darhaqiqat, kasb tanlash real voqealikdan ajralgai tasodifiy faoliyat emas. Yigit va qizning qanday qarorga kelishi va ular bu qarorni qanday qabul qilishi ko'pgina omillarga: bozor iqtisodiyotining mutaxassislariga bo'lgan talab-ehtiyojlari muhimligiga, mazkur joyda ish kuchiga bo'lgan talablarga va ish sharoitlariga, xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv yurtlarining mavjudligiga va ularda tanlovlarning kattaligiga bog'liq. Kasb tanlash oilaviy ahvol, yashash joyi, kasblarning bir xilda ommabop bo'lmasligi va shu kabilarga bog'liqdir.

Lekin kasb tanlashni muhitdagi shart-sharoitlarigina belgilamaydi.

O'quvchilar bilan aloqada bo'layotgan shaxslarning ta'siri ham katta ahamiyatga egadir. O'smirlarning hayot yo'lini belgilab berishda ota-onalarning roli naqadar katta ekanligi hammaga ma'lum. Ko'pincha o'quvchilar u yoki bu ishga do'stlari, o'rtoqlari, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlarining maslahati bilan kiradilar. Bu borada maktabning ta'siri ham kam emas. Nihoyat, o'quvchilardan so'rash ko'rsatganidek, bu sohada ijtimoiy axborot vositalari: vaqtli matbuot, radio, televidenie, adabiyotlar katta rol o'ynaydi.

Tabiiyki, atrofdagi kishilar va vaziyatlarning ta'siri kasb tanlashni shakllantiradi. Lekin bunda shaxs ularni turlicha qabul qilishi va baholashi mumkinligini hisobga olmaslik mumkin emas. Masalan, o'quvchilar o'zlari uchun eng yaqin kishilar bo'lmish ota-onalarining istagi bilan hisoblashmasdan kasb tanlashlari mumkin. Atrofdagi kishilarning fikriga qaramasdan kasb tanlash hollari mavjud. Bunga sabab shuki, kasb tanlash muhit ta'siriga passiv javob sifatida emas, balki ongli harakat sifatida ro'y beradi. Bunda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va idrok qilinadi. Kasb tanlashda onglilik darajasi shaxs kasbni qanday tanlashiga, u jamiyat talablarini, individual xususiyatlar va qiziqishlarni qanchalik hisobga olishiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, kasbni ongli ravishda tanlash shaxsning muayyan «etukligi»ni, xususan ma'lum umumiy ma'lumot darajasiga ega bo'lishni, mehnatga tayyorgarlik, ishlashga shaylik, kasb tanlashga qiziqish, mayllar, ijtimoiy jihatdan qimmatli bo'lgan sabablar o'z qobiliyatlariga o'zi to'g'ri baho berish va shu kabilarning mavjudligini ko'zda tutadi.

Shaxsning xulq-atvori uchun asos bo'ladigan uning fazilat va xususiyatlari birdan namoyon bo'lmaydi va o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi.

Odatda, bu fazilat va xususiyatlar shaxsning uzoq vaqt davomidagi kamoloti mahsuli, ta'lim va tarbiya sharoitida shaxs faoliyatining natijasidir. Kasb tanlash bundan mustasno emas. Kasb tanlash ham shaxsning bundan oldingi butun kamol topishi bilan tayyorlangan. Shaxsning shakllanish natijalari uning kasb tanlashga kanday yondashishiga ta'sir o'tkazadi. Binobarin, kasbga yo'naltirishni o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdan iborat umumiy ishdan tashqari ko'rib chiqish yaramaydi. Kasbga yo'naltirish maxsus vazifaga qaratilgan bo'lsa ham, unga ayrim «tadbirlar» deb qarash mumkin emas. Kasb tanlashga tayyorgarlik masalasini maktab o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jihati deb qarash kerak.

Shu nuqtai nazardan, masalan, kasbga yo'naltirishni yoshlarning fakat kasbiy qobiliyatlarini aniqlashga va qobiliyatlari bo'yicha kasb tanlashda ularga yordam berishga qaratilgan faoliyat, deb hisoblash noto'g'ri bo'lur edi.

Kasb tanlashda qobiliyatlarning muhim ahamiyat o'ynashini hech kim inkor qila olmaydi. Lekin bunda shaxsning boshqa jihatlarini xam nazarda tutish lozim.

Kasbga yo'naltirish muammosini shaxsning faqat qiziqishlarini yoki tipologik xususiyatlarini xisobga olib hal etish yo'lidagi urinishlarni ham noto'g'ri urinishlar, deb hisoblash kerak. Masalan, qiziqishlar shaxsning maqsadini ifodalasa ham, lekin uning kasbiy jihatdan muhim xususiyatlari va hislatlarini to'lik aks ettirmaydi. Bundan tashqari, qiziqishlar tez-tez o'zgarib turadi va hamma vaqt ham etarli darajada asoslangan bo'lmaydi. Shu narsani ham yoddan chiqarmaslik kerakki, yoshlarning kasbiy qiziqishlari jamiyatning talab-ehtiyojlariga mos bo'lib tushmasligi mumkin.

Yuqorida aytilganlarning hammasini kasbga yo'naltirish ishida odamning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishning rolini kamsitishdir, deb talqin qilish yaramaydi. Aksincha, odamning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, shaxsning sobitqadam shakllanishiga erishib bo'lmaydi.

O'quvchilarning shaxs xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakterini, jismoniy kamolotini bilish o'quvchilarni faoliyatning qaysi bir turiga tayyorlash maqsadga muvofiq ekanini belgilash uchun zarur. Bunda odam o'zining tabiiy xususiyatlari bilan belgilangan ezgu kasbni qidirish va-zifasi o'rta qo'yilayotgani yo'q, balki tarkib topgan psixologik xususiyatlar va jismoniy belgilar bo'yicha shu odam uchun birmuncha maqsadga muvofiq bo'lgan kasbiy faoliyatning umumiy xakteri yoki kasblar tipigina aniqlanadi. Shaxsni o'rganish haddan tashqari bir tomonlama tusga ega bo'lmasligi lozim, chunki bu hol uning kasbga yaroqliligiga baho berishda va uning kamol topishi yo'nalishini belgilashda noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, maktabdagi butun ta'lim va tarbiya tizimi o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashni ta'minlaydi. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash umumiy politexnik va mehnat ta'limi jarayonida, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ish jarayonida olib boriladi.

Shunday qilib, kasbga yo'naltirish ishining mazmuni:

- politexnik ta'lim, maktabdan tashqari va sinfdan tashqari ish jarayonida o'quvchilarni bozor iqtisodiyotining turli tarmoqlari (sanoat, transport, aloqa, qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, qishlok va o'rmon xo'jaligi, sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ijtimoiy-iqtisodiy soha, savdo umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari), eng ommalashgan kasblar bilan tanishtirishni:

- ishlab chiqarish sharoitlarida turli ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirishni, mehnat ta'limi jarayonida ularda kichik mutaxassislar kasblariga qiziqishni tarbiyalashni;

- bolalarning texnik ijodkorligi, tajribachilik va ta'lim-tarbiya ishining boshqa shakllari jarayonida o'quvchilarda kasbkorlik qobiliyatlarini, mayllarini va qiziqishlarini rivojlantirishni;

- o'quvchilarda ishchi kasblariga qiziqish va hurmat bilan qarashni tarbiyalashni, o'quvchilarni ana shu kasblarni tanlashga tayyorlash hamda maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikda ish olib borish tizimida mehnat va kasbiy an'analarni qo'llab-quvvatlashni;

- pedagogik maslahatlar berish yo'li bilan kasbni to'g'ri tanlashda o'quvchilarga yordam berishni o'z ichiga oladi.

Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida ularda kasbga bo'lgan qiziqishlar va ideallarning axloqiy asoslarini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vaj-sabablarini shakllantiradi.

Kasbga yo'naltirish ishi - butun pedagoglar jamoasining ishidir. Bu ish ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib qolishi lozim. Shu bilan birga bu ishini muvaffaqiyatli olib borish uchun umumiy ta'lim maktabi imkoniyatlari doirasidan kelib chiqadigan maxsus ish shakllarini joriy etish zarur. Bunday ish shakllariga, avvalo, aniq kasblarga oid mehnat mazmuni va shu kasblarning odamga qo'yadigan o'ziga xos talablari to'g'risidagi axborot, ish va kasbga o'rgatish sharoitlari haqidagi, korxonalarda va ta'lim muassasalarida kadrlarga bo'lgan talablar to'g'risidagi axborot, kasblar haqida maslahatlar berish kiradi. Shuning uchun ham maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishini o'tkazishga korxonalarni, jamoatchilikni, ommaviy axbo-rot vositalarini jalb qilish, kasbga oid maxsus maslahat punktlarini tuzish kerak bo'ladi, bunday punktlarda o'quvchilar va ularning ota-onalari kasb tanlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bularning hammasini kasbga yo'naltirish xizmati deb atash mumkin. Bunday xizmatning vazifasi - o'quvchilarni aniq kasbga yo'naltirish masalasini to'g'ri hal qilishda maktabga yordam berishdan iboratdir.

Kasbga yo'naltirish ishiga tarbiyaviy yondashuv g'oyasi yangi g'oya emas, albatta. Bu borada vujudga kelgan nazariya va amaliyot ikki yo'nalish bo'yicha:

bir tomondan, kasbiy qobiliyatlarni tashhiz qilish yo'nalishi, ikkinchi tomondan, qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash yo'nalishi bo'yicha rivojlanmoqda. Chunonchi, tashhiz qilish yo'nalishi odamning qobiliyatlari tug'ma va uning tabiiy asosini na ta'lim berib, na tarbiyalab, na faoliyat jarayonida o'zgartirib bo'ladi, degan fikrga asoslanadi. Shu boisdan odamning kelajakdagi kasbi oldindan belgilab qo'yilgan, uni imkoni boricha barvaqt payqash kerak. Shu munosabat bilan odamning kasbga yaroqliligini aniqlash va xodimlarni o'tkazilgan tekshirish natijalariga qarab ish o'rinlariga joylashtirish kasbga yo'naltirishning asosiy vazifasidir. Bu natijalar inson uchun ma'lumot darajasini va ixtisosini ham oldindan belgilab berishi lozim.

Tug'ma qobiliyatlar to'g'risidagi ta'limot tarafdorlari shaxsni o'rganish metodi sifatida testlarni8 tilga oladilar va ularni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Ma'lumki, nazariy kontsepsiya tadqiqot metodikasinigina emas, balki ish tajribasi(amaliyot)ni, shuningdek ma'lum darajada uning tashkil etilishini oldindan belgilab beradi. Ana shu yo'nalish tadqiqotchilari kasb uchun odamlarni tanlash kasbga yo'naltirish ishining asosiy shaklidir, deb hisoblaydilar. Bunda kasb uchun odamlarni tanlash ishga joylashtirish uchun nomzodlarni «elakdan o'tkazish» sifatida tushuniladi: qobiliyatlarining ishlab

chiqilgan normalariga mos bo'lgan odamlar qabul qilinadi, zarur ko'rsatkichlarga mos kelmagan kishilar esa ishga olinmaydi.

Qobiliyatlar - odam boshlang'ich tabiiy belgilari va uning faoliyati natijalarining «qorishmasi»dir; faoliyat natijalari «qurilish materiali» sifatida qobiliyat qatoriga kiradi (S. L. Rubinshteyn); binobarin, kasbga yaroqlilik ham muayyan darajada faoliyat natijasidir.

Inson qobiliyatlarining rivojlanishi va mehnatning kasblar bo'yicha taqsimlanishi - turli manbalarga ega bo'lgan va turli qonuniyatlarga bo'ysungan jarayonlardir: tabiiy iste'dod nishonalarida ham, oilada tarbiyani umuman rivojlantirish, maktabda ta'lim berish sharoitlarida ham kelgusidagi kasbkorlik talablari asosida qobiliyatlarni shakllantirishni tabaqalashtiruvchi muhim omillar yo'q.

Kasb ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tarkib topgan doimiy tizimi sifatida qaralmasligi kerak, u texnikaning rivojlanishiga, texnologiyaning takomillashib borishiga va shu kabilarga qarab o'zgaradigan tarixiy kategoriyadir, nisbatan qisqa vaqt ichida hozirgi zamon kasblarining qiyofasi jiddiy o'zgaradi, ayni mahalda inson qobiliyatlarida biron-bir keskin o'zgarishlar ro'y bermadi.

Kasbga yaroqlilikka odam psixofizik xususiyatlarining kasbkorlik faoliyati talablariga mosligi deb qarash yaramaydi; odam mehnatda o'zining ijtimoiy maqsadlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va shu kabilarning butun xilma-xilligi bilan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish - pedagogikaning muhim bo'limidir. Demak, pedagogikaning shakl va metodlari kasbga yo'naltirish ishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3-Modul. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini rejalashtirish va tashkil etish.

8-Mavzu: Kasb hunarga yo‘naltirish ishining asosiy yo‘nalishlari va bosqichlari.

Reja:

1. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishining asosiy yo‘nalishlari va ularning mazmuni.
2. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishining mazmuni:
3. Kuzatish; diagnostik suhbatlar; birinchi bosqich - 1-4 sinf; ikkinchi bosqich - 5-9 sinf; uchinchi bosqich - 10-11 sinf yoki akademik litsey, kasb- hunar kolleji.

Tayanch so‘zlar: Asosiy yo‘nalishlar va ularning mazmuni. Kuzatish; diagnostik suhbatlar; Kasb hunar maktabi

1. Кузатиш.
2. Диагностик суҳбатлар.
3. Биринчи босқич – мактабгача таълим ёши.
4. Иккинчи босқич – 1-4 синфлар.
5. Учинчи босқич - 5-7 синфлар.
6. Тўртинчи босқич – 8-9 синфлар.
7. Бешинчи босқич – академик лицей, касб ҳунар коллежи.

Республикаимиз мустақиллика эришгандан кейинги йилларда таълимни ислоҳ қилиш бўйича кўпгина қарор ва қонунлар қабул қилинди, уларда ўқувчиларни касб танлашга йўналтириш вазифалари ҳам етарлича ўз ифодасини топмоқда. Бунга Халқ таълими вазирлигининг 2002 йил 10 октябрдаги 153 сонли буйруғи асосида ўқувчиларни касб - ҳунарга йўналтириш тизимини такомиллаштиришнинг Янги концепциясини ишлаб чиқилди ва тасдиқланди.

Ҳозирги кунда касбга йўналтиришдан мақсад – ўсиб келаётган ёш авлодни касбни (касбларнинг типлари, туркумлари, группалари, бўлимларини) онгли равишда танлашга тайёрлашдир. Кузатиш – ўқувчиларни ўрганишнинг кенг оммалашган методидир. Бу метод муайян мақсадни кўзлайди, иш режа асосида олиб борилади, кузатишнинг яқунловчи натижалари қайд қилинади. Инсонинг илмга бўлган чанқоқлигини кондирувчи биринчи зиё чашма бу мактабдир. Мактабда ўқувчи шахс сифатида шакллана бошлайди. Унда дастлабки касбий хиссиётлар юзага келади. Булар меҳнатсеварлик, меҳнат қилиш зарурлигини тушуниш ва англаш, ўз ишини режалаштира ва назорат қила билиш, иш ўрнини тўғри ташкил қилиш, иқтисодий- тежамкорлик, сабр – тоқатлилиқ, талабчанлик, топшириқни бажаришнинг энг оқилона усули (етти ўлчаб, бир кес) танлаб ола билиш ҳамда вақтни тежаш ва шу кабилардир. Болаларни касблар оламига аста – секин олиб бориш, уларни шу оламда мўлжал олишга ўргатиш зарур.

Ўқитувчи – ўқувчини дарсларда кузатиш, у билан суҳбатлашиш, бола фаолияти маҳсулини таҳлил қилиш жараёнида унинг баъзи хусусиятларини қобилят, қизиқиш, мойилликларни пайқаб олади, бу хислат ва фазилатларни шакллантириб бўлар касбни белгилашда асосий омил бўлиши мумкин. Боланинг касбий муҳим хислат ва фазилатларини барвақт аниқлаш ва эса кейинги ўз хусусиятларига қараб касбни тўғри танлаш, уни мувоффақиятли равишда ўзлаштириш, меҳнатда юксак натижаларга эришиш имконини бериши мумкин.

Кўпинча мустақил Хамдўстлик мамлакатлари ҳамда Республикамиз олимлари ўтказган илмий – тадқиқотларида болажонларнинг райига, ҳошиш – истагига, интилишини уч босқичда тажриба – синов ишларини умумлаштириб таҳлил қилмоқдалар.

Диагностик суҳбатлар – якка тартибда ёки жамоа тарзда ўтказилиши мумкин. Психолог олим К.М.Гуревич 3-4 ёшли болаларда мотивларнинг бирламчи тобелиги ва дастлабки иродавий ҳаракатнинг пайдо бўлишини татбиқ этиб, болага жимжимадор уйинчокни олишдан – олдин ўзи ёктирмаган ишни бажариш топширигини берган. Олинган маълумотлардан қўйидагилар маълум бўлди: а) – мактабгача ёш даврида эзгу орзулар йўлида ҳаракат қилиш имконияти туғилади; б) – ушбу орзуларнинг бевосита боғлиқ сабаблари бевосита сабабларга қарганда эртароқ пайдо бўлади; в) – бевосита идрок қилинадиган нарсаларга алоқадор ҳошишни бажаришга қараганда, нарсанинг ўзига алоқадор ҳошишни бажаришни муайян муддатга кечиктириш осонроқ. Хулоса қилиб бунинг замирида боланинг майинлиги, нияти, орзуси, касбга қизиқиши, ҳошиш – истаги ва тилагининг мазмуни ҳамда хусусиятидаги ўзгаришлар ётади. Мактаб ўқувчиларининг тахминан 25-30% фоизда танланган касбга нисбатан касбга барқарор қизиқишлар бошланғич кичик ёшларидаёқ шаклланади экан.

Ўқитувчининг вазифаси: - ўқувчиларнинг қизиқишларини мумкин қадар олдинроқ аниқлашда ва давлат, ҳокимият, маҳалла, оила талаб – эҳтиёжларига мувофиқ шу қизиқишларни ривожлантиришда, инсон шахсини ҳар томонлама уйғун баркамол топтириш учун шарт-шароитлар яратишдан иборат.

Ўқувчини меҳнат қилишга ўргатиш, нафақат меҳнатни севишга у билан шундай уйғунлашишига кўниктириш керакки, меҳнат унинг вужудига сингиб кетсин. Уларни касб ҳунарга йўналтириш, орқали бирор касб эгаси бўлишида, ўқувчилар меҳнатсиз бирор – бир нарсага эриша олмасликларини тушуниб етсинлар (4 – шакл) да ифодаланган.

1. Мактабгача таълим ёшидаги (биринчи босқичда) болалар таълим – тарбиясига қўйиладиган Давлат таълим стандарти талабларида ҳам мактабгача ёшдаги болаларнинг одоб – ахлоқи ва меҳнатга лаёқатлиги жиҳатдан етук комил инсон бўлишига катта эътибор берилади. Болалар илк ёшдан бошлаб меҳнатсевар бўлиш ва бошқалар меҳнатни қадрлаш каби одатларга ўргатилади. Мана шу одатлар болани одоб-ахлоқли, меҳнатга мойиллик қилиб тарбиялаш мазмунининг асосини ташкил этади. Одоб – ахлоқи ва меҳнатга лаёқатлилигига оид эгаллашлари зарур бўлган минимал талаблари:

- катталар меҳнатини қадрлаш лозимлигини билиш;
- ўзига ишониш;
- ўз – ўзига хизмат қилиш;
- уйда ёки боғча ховлисида енгил юмушларни бажара олиш;
- маҳаллада ёки томорқада меҳнат қилаётган катталарга кўмаклашиш;
- ўйинчокларни ва хона анжомларини ўз жойига қўйишни билиш;
- меҳнатсевар бўлиш яхши одат эканлигини англаш ва х.к.лар амалга оширилса, бошланғич кичик ёшдаги, ўрта ёшдаги, катта ёшдаги, академик лицей, касб-ҳунар коллежи босқичларнинг асоси ҳисобланади.

2. Ўқувчиларни касбга йўналтириш ёш иккинчи босқичи (бошланғич кичик ёшдаги) қўйидаги мазмуни эга бўлади:

Бошланғич I-IV синф ўқувчиларини касбга йўналтиришдан мақсад уларни меҳнат, касб турлари, йўналишлари билан таништириб бориш ва ўқувчиларда касб фаолиятига бўлган қизиқишни шакллантиришдан иборат. Бунга эришиш учун уларда меҳнат ва касб олами ҳақида тасаввур пайдо қилиш, - ўқувчилар билан «Ким бўлсам экан», «Касбим-фаҳрим», «Касб танлаш- ҳаёт кўзгуси» каби мавзуларида суҳбатлар, баҳслар мунозараларни ташкил қилиш; ўз-ўзини баҳолай билиш малакаларини ҳосил қилиш; -

интеллектуал ва ҳиссий иродавий ҳисларни ривожлантириш: Бу ёшдаги болалар меҳнатга ҳалол муносабатда бўлишлари унинг ҳаётдаги ва жамиятдаги ролини тушуна билишларида, ҳар қандай иш бажариш учун интилувчанлик, табиат, атроф-муҳитга ва унинг бойликларини сақлаш ва бошқаларда.

5. Учинчи босқич (5-7 синфлар) ўрта ёшдаги ўқувчиларда касб танлаш ва жамиятда ўз-ўрнини белгилаш билан боғлиқ ҳолда ўзида бўлган қизиқиш, қобилият ва маънавий-моддий қадриятларни англашга замин яратиш. Бўлғуси касбий фаолиятлар бу ёшдаги ўқувчилар учун ҳаётдаги ўз ўрнини аниқлаш ва тайёрлашда туртки, ўз шаклланиш имкониятларини очиши ва касб танлаши учун зарур бўлади.

6. Тўртинчи босқич (8-9 синфлар) катта ёшдаги ўқувчиларини касб танлашга йўналтириш ишларининг мазмуни шахснинг маънавийфазилатлари ҳамда хислатларини ва жамият олдидаги бурчи, жавобгарлик хислатларини шакллантириш билан ажралиб туради. Бу эса уларда ташаббус билан чиқиш, мустақил қарор қабул қилиш, ҳатти – ҳаракатлари натижасида билиш ва ўзининг фаолияти нимага олиб келишини сезиши билан белгиланади.

7. Бешинчи босқич (академик лицей, касб ҳунар коллежи) талабаларнинг касб ҳунарга мойиллигини, лаёқатларини, билим ва кўникмаларини чуқур ривожлантириш, уларга танланган йўналишлари (Метал ва унга ишлов бериш, ёғочга ва унга ишлов бериш; Газламаларга ишлов бериш; Озик – овқат маҳсулотларига ишлов бериш; қишлоқхўжалик асослари; Халқ ҳунаремандчилиги)бўйича бир ёки бир неча замонавий касбларни эгаллаш имконини беради. Халқимизда илму - ҳунар улуғланиб келган. Агар инсон бирон – бир касбни мукамал эгалласа, ҳунар унга ҳузур бағишлайди.

Такрорлаш учун саволлар.

1. Касб танлашда кузатувни олиб бориш услуби нимадан иборат?
2. Касб танлашда диагностик суҳбатлар мазмуни нимадан иборат?
3. Касбга йўналтириш ишларининг моҳияти ва мазмунини ёритиб беринг?

Таянч иборалар:

1. Кўзатиш.
2. Диагностик суҳбат.
3. Анкеталар.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. К.Давлатов, В.Чичков. “Ўқувчиларни касб танлашга йўллаш” Тошкент “Ўқитувчи” 1978 йил.
2. С.У. Клюга, С.Н. Чистякова «Касб танлаш» курси методикаси. Тошкент «Ўқитувчи» 1989 йил
3. Н.Шодиев «Студентларга ўқувчиларни касб танлашга йўллаш ишларини ўрганиш» Тошкент “Ўқитувчи” 1992 йил.

9-Mavzu. Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ta'lim muassasasi jamoasining faoliyati.

Reja:

1. Ta'lim muassasasi rahbari, direktorning o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha muvoinlari
2. Fan o'qituvchilari, sinf rahbari, o'quv muassasalari psixologi, ta'lim muassasasi vrachining kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha faoliyati.
3. Sinf rahbarining kasb-hunarga yo'naltirishdagi o'rni.

Tayanch so'zlar: Ta'lim muassasasi. Fan o'qituvchilari. Sinf rahbari. Kasb-hunarga yo'naltirish

Ta'lim muassasi o'quvchilariga kasblar to'g'risida malumotlar berishga quyidagilarni kiritish mumkin: o'quvchilarda mamlakat va xudud uchun zarur bo'lgan kasblar, kasb-hunar kollejlari mavjud ixtisosliklar to'g'risida tasavvurlarni rivojlantirish: ularni ushbu ixtisosliklarga qiziqtirayotgan ixtiyoriy majburiy talim yo'naltirishini tanlashlariga amaliy maslahatlar berish: shaxsning individual xususiyatlari bilan kasblarni insonga qo'yadigan talablarga mos kelmasligini anglashiga yordamlashish va boshqarish.

Xona sharoitida kasblar to'g'risida axborot malumotlar berish shakllari xilma-xildir: mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, bahslar, ko'rgazmalar uyushtirish, kasblar tasniflagich, kasblar tanishtirish, sinf soatlari o'tkazish va hakazolar.

Xona bazasida yuqori sinf o'quvchilari uchun "Kasb tanlashning psixologik-pedagogik asoslari", "Maktab o'quvchilarining ixtiyoriy majburiy talim yo'naltirish ongli tanlashga tayyorlash" kabi fakultativlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Hududda joylashgan kasb-hunarlar to'g'risida, kollejlarda, litseylar to'g'risidagi targ'ibot ishlari ham xonada olib borilishi ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilarga xududiy iktisodiy tuman uchun zarur kasblar, ixtisosliklar bo'yicha malumotlar beriladi, bu kasblarni egallashi lozim bo'lgan kasb-hunar kollejlari hayoti bilan tanishtiriladi, ochiq eshiklar kunlari, xona uchun kollejlarda to'g'risidagi albomlar, diafilmlar, filmlar ko'rish va hakazolar, sayoxatlar, ishlab chiqarish ustalari va kollejlarda o'quvchilari bilan uchrashuvlar vaqtida kasb egallash va o'rta malumot olishning afzalliklarini tushuntirib berish kabilar.

Kasbga yo'naltirish xonasining yana bir asosiy vazifalaridan biri kasb tanlash bo'yicha ta'lim muassasi o'quvchilari bilan birga individuallik olib borish xisoblanadi. Xona mudiri bu ishni sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota-onalar, ta'lim muassasi shifokori, tuman psixologik - pedagogik tashxis markazi bilan hamkorlikda olib boriladi. Uning vazifasi o'quvchilar shaxsini o'rganishda o'qituvchilarga yordam berish, kasbni ixtiyoriy majburiy ta'lim yo'naltirishini mustaqil tanlashda ta'lim muassasi o'quvchilarning faolligini oshirish yo'llari to'g'risida o'qituvchilar uchun tavsiya ishlab chiqish o'quvchi kasb tanlashga qiynalayotgan xollarda maslahat berishdan iborat.

Kasbga yo'naltirish xona mudiri (rahbari) ta'lim muassasi psixologi yoki tuman tashxis markazi psixologi bilan hamkorlikda o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishini olib borishning muvafaqiyati ko'p jihatdan ularning malakalari qay darajadiligiga bog'liq ayniqsa konsultantning ta'lim muassasi kasbga yo'naltirish ishlari umumiy asoslari to'g'risidagi bilimlarining chuqurligiga, individual tavsifnomalar tuzishi, o'quvchilar, ularning ota-onalari, o'qituvchilar bilan shaxsiy maslahatlar olib borishi, kasb maslahatlarga oid xulasolar chiqara olishiga bog'liq.

Maslahatchi ishini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lishi mumkin:

birinchi bosqich - o'quvchining biror bir ish foliyatidagi muvofiqligini aniqlash maqsadida uning shaxsini har tamonlama o'rganishi, yani uning individual xususiyatlarini tashxis qilish;

ikkinchi bosqich - kasbni (ixtiyoriy majburiy talim yo'nalishini) asosli tanlovga tayyorlash.

SHaxsni individual xususiyatlarini tashxis qilishning majmuaviy metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sinfda va sinfda tashqari ishlarda kuzatish. VII-IX sinf o'quvchilari, ularning ota-onalariga anketa - so'rovnoma tarqatish, individual suxbatlar, psixologik testlar o'tkazish va x.k.

Mazkur metodlar yordamida olingan barcha ma'lumotlar "Kasbkonsultatsiya xaritasi" da umumlashtiriladi. Uquvchilarning qiziqishlari moyilliklari, qobiliyatlariga, individual xususiyatlariga qarab kasb yo'nalishi to'g'risida konsultatsiyaning dastlabki xulosasi chiqariladi va ularning kasb tanlashi uchun psixologik-pedagogik maslahat beriladi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashini va mustaqilligini oshirish maqsadida quyidagi mavzularda insholar, referatlar tavsifiya etish mumkin:

1. Bozor iqtisodiyoti va kasblar.
2. Xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kasblar.
3. Xudud uchun zarur bo'lgan "odam - odam", "odam - texnika"

turkimidagi kasblar.

4. "Odam-tabiati", "odam-belgi tizimi" va "odam-badiiy obraz"

turkimidagi kasblar.

5. Kasblarni insonga qo'yadigan psixofiziologik talablari.

Kasblarga yaroqlilik .

6. Mamlakat uchun ustivor yo'nalishidagi kasblar.

7. "Talim to'g'risida"gi Qonunda va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yoshlarni kasblarga yo'naltirish va tayyorlash muammosining qaralishi.

8. Uzluksiz kasbiy talim tizimi.

Ilova 1

Mehnat va kasbga yo'naltirish xonasida olib boriladigan o'quv metodik ishlarning taxminiy rejasi

№	Ishlarning mazmuni	Bajarilishi	Javobgarlar
1	2	3	4
I	Tashkiliy ishlar		
1	Maktab pedagogik jamoasi tarkibidan o'qituvchilar, metodistlar, ishlab chiqarish ilg'orlari, mahalla oqsoqollari tibbiyot xodimlaridan iborat o'quvchilarni kasblarga yo'naltirish ishlari bo'yicha komissiya tuzish.	sentyabr	O'quv muassasidirektori, Xona mudiri.
2	"Kim bo'lsam ekan?" maktab gazetasini muxarririyatini saylash va muntazam chiqarilishini taminlash.	sentyabr	O'quv muassasidirektori, Xona mudiri.

3	Hudud uchun kadrlar extiyojini uch,besh vao'n yillikdagi istiqbollarini aniqlash va o'rta maxsus,kasb-hunar talimimuassasalari bilan umumiy o'rta talim maktablarini kasbga yo'nal-tirish bo'yicha hamkorlikdagi ishlarini doimiy olib borish.	sentyabr	Kasbga yo'naltirish bo'yicha komissiya
4	Urta maxsus, kasb -hunar talimi muassasalariga sayohatlar tashkil	Doimo	Sinf raxbari
5	Kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha radio eshitirishlar tashkil etish	Kasbgayo'naltirish Haftaligio'tkaziladi-Ganvaqlar	Xona mudirlari
6	Maktabning predmet o'qituvchilarining sinf rahbarlarining va to'garak rahbarlarining kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlar olib borganligi hisobotlari xaqqoniyligini tekshirish.	har chorak yakunida umumiy ukuv yili oxirida	Maktab direktor: xona mudiri.
7	"Bular bizning faxrimiz". "Kasb tanlashda adashmang" stendlarini tayyorlash	dekabr	Xona mudiri Mehnat talimi o'qituvchisi.
8	Kasbga yo'naltirish va mehnat tarbiyasi to'g'risidagi adabiyotlarini kutubxona fondini to'ldirib borish	doimo	Kutubxona mudiri
9	Ta'tildada va dam olish maskanlarida kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha tadbirlar utkazishni rejalashtirish.	aprel	Xonamudir.
II	Uquvchilar bilan olib boriladigan metodik ishlar.	sentyabr	Sinfraxbari, fan o'qituvchisi
1	Turli xil yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb tanlashga oid taxminiy rejani ishlab chiqish.		
2	Maktab o'quvchilari uchun "Maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan yo'naltirish ishlarining nazariyasi va amaliyoti" mavzusida maruza uyushtirish.	sentyabr	Maktab direktori xona mudiri
3	Kasbga oid konsultatsiya maqsadida "o'quvchi shaxsini o'rganishda o'qituvchining o'zni mavzusida seminar o'tkazish.	oktyabr	
4	Sinf rahbari o'quv rejalarida kasbga yo'naltirish ishlarini	Har chorak	Ma'naviy ishlar buiyicha direktor

	bajarilishini nazorat qilish.		urinbosari, xona mudiri
5	Kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlanmalar bilan xonani muntazam to'lg'azib borish.		Xonamudiri
6	Sinf rahbari bilan ishlab chiqarish korxonalariga, qishloq xo'jaligi jamoa shirkat xo'jaliklariga, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlariga sayohatlar rejalarini ishlab chiqarish : VI sinflarda sanoat korxonalariga ;		
	VII sinflarda jamoa shirkatlarga; VIII sinflarda agrosanoat majmualariga; IX sinflarga o'rta maxsus, kasb hunar talimi muassasalariga		
7	Quyidagi mavzular bo'yicha suhbatlar o'tkazish rejalarini Ishlab chiqarish 1-sinflar uchun - "Insonlarni kuzda-baxorda, yozda va qishda kiladigan mehnatlari"; III- sinflar uchun - "Non bizning Boyligimiz!" IV-sinflarga "Hozirgi zamon ishchisi kanday bo'lmog'i kerak?"; V-- sinflarga - "Kasb tanlash vasening maktabdagi o'qishing"; VI-- sinflarga - "insonlarning Mehnat qilishdagi baxti"; VII-- sinflarga - "to'g'ri kasb tanlash uchun nimalarga etibor Berish kerak?"; VIII-- sinflarga - "To'g'ri kasbtanlash umumdavlat ishi" IX - sinflarga "Ixtiyoriy Majburiy talim yo'nalishini Ongli tanladingmi?".	Noyabr	Fan o'qituvchilari, sinf rahbari
8	Maktab o'quvchilarining metodik birlashmalar uchun tuzgan kasbga yo'naltirishga oid ishlari. Buyicha, olib boradigan Rejalarini kurib chikish va tajriba almashish.	yilda 2marta metodik birlashmalari yig'ilishlarida.	Xona mudiri.
9	Kasbga yo'naltirish xonasi	.	Xona mudiri.

	metodik burchagini bezash, "Maktab kasbga yo'naltirish ishlari" stendini tayyorlash	noyabr	mehnat vatasviriysanato'qituvchi
III	Ota - onalar bilan ishlash		
1.	Ota-onalar uchun "yoshlarni to'g'ri Kasb tanlashlarida oilaning o'rnini" mavzusida maruza uyushtirish.	dekabr	Kasbga yo'naltirish bo'yicha komissiya.
2	Xuddagi ishlab chiqarish korxonalari va o'quvchilarni sayohatga chiqarishda ota-onalarni jalb qilish	reja asosida	Sinfraxbari
3	Ota-onalar bilan o'quvchilarning Kasb tanlashlariga oid individual konsultatsiya o'tkazish.	doimo	Sinf Rahbari, xona mudiri
4	"Eshlarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda ota -onalarining o'rnini" mavzusida ota-onalar yig'ilishini o'tkazish.	yanvar	Sinf raxbari
5	Turli xil kasb vakillari o'quvchilarni ota-onalar bilan uchrashuv o'tkazish.	mart	Kasbga yo'naltirish komissiyasi.
6	Kasbga yo'naltirish xonasini jixozlashda va bezashda ota -onalarini jalb etish	doimo	KomissiyaOta-onalarKengashiXona mudiri
7	Ukuvchilar bilan olib boriladigan ishlar.		
IV	VIII sinflarga "kasbga yo'naltirish " bo'limini o'tishnitashkil etish.	dars jadvali asosida	Mehnattalimi o'qituvchisi,manaviyat bo'yicha direktor muovini.
1	Kasblarni qo'llab quvvatlash haftaligini tashkil qilish sanoatni, mayishiy xizmat ko'rsatishni, fan va talimni, qishloq xo'jaligini.	noyabr dekabr mart, may	kasbga yunaltirish bo'yicha komissiya
2	Turli hil kasblar to'g'risida kinofilmlar namoyish etish.	yil bo'yi	Xonamudir
3	Maktab o'quvchisi shaxsini o'rganish bo'yicha " Maktab o'quvchisining individual kartasini muntazam to'ldirib borish.	Doimo	Sinf rahbarifan o'qituvchilari. Maktab
4	Har bir sinf uchun "Hududimiz uchun zarur kasblar " albomini tayyorlash.	dekabr yil bo'yi	Sinf raxbari
5	VII - IX sinf o'quvchilari uchun tibbiy konsultatsiya bo'yicha maruzalar	aprel	Sinf raxbari, maktab shifokori.

	uyushtirish		
6	II -IX sinf o'quvchilari bilan kasb - hunar kollejlari o'quvchilarining uchrashuvi tashkil etish.	aprel	Kasbgayo'naltirish bo'yichakomissiya
7	IX sinf o'quvchilarini kasb-hunar kollejlari sayohat uyushtirish.	may	Sinf raxbari, mehnat o'qituvchisi

lova 2

VII-IX sinf o'quvchilarining ota - onalari uchun anketa - so'rovnoma

Hurmatli ota - onalar!

Farzandimiz umumiy o'rta talim maktabini tamomlayapti. U ixtiyoriy majburiy talimda o'rta maxsus kasb - hunar o'quv muassasalarida o'qishni davom ettiradi. Uni taxsil yoki soha yo'nalishini mustakil tanlashi kelgusi kasbiy qayotiy yo'lini yorug' bo'lishini, malakali kadr bo'lib etishishiga zamin yaratadi.

Unga shunday ma'suliyatli qarorga kelishiga malakali yordam berish uchun o'qituvchilar va ota - onalarning kuch g'ayratlarini birlashtirishi zarur.

Sizdan olinadigan ma'lumotlar shu maqsad amalga oshirishga xizmat qiladi.

1. O'quvchining F.I.SH. _____

tug'ilgan yili _____ sinfi _____ manzili _____

2. Ota-onasi to'g'risida ma'lumotlar:

Otasi F.I.SH. _____

Ish joiy _____ kasbi _____

lavozimi _____ ma'lumoti _____

Onasi F.I.SH. _____

Ish joiy _____ kasbi _____

lavozimi _____ ma'lumoti _____

3. Oiladagi bolalar soni _____

Ug'il _____ qiz _____ qayerda ishlaydi _____

qayerda o'qiydi _____

4. O'quvchining shug'ullanishi uchun uyda sharoit yaratilganmi?

5. Salomatligi qanday? _____

6. Siz o'g'il (qizingiz) kasb tanlash xususida shifokor bilan maslahatlashdingizmi? _____

7. O'g'lingiz (qizingiz) qaysi fanlarga qiziqadi? _____

8. Farzandingiz qaysi fanlarga qiziqadi? _____

9. Farzandingiz o'z qo'li bilan nimalar yasaydi? _____

10. Oilaviy ishlarni bajarishda mustaqil fikrlaydimi? _____

11. Uy topshiriqlarini qanday bajaradi? _____

12. Farzandingiz kelgusida kim bulmoqchi? _____

13. Siz kaysi kasbni egallashni xoxlaysiz? _____

14. Farzandingiz va sizning fikringiz mosmi? _____

15. Farzandingiz sizning kasb faoliyatingizga qiziqadimi? _____
16. Farzandingizning akademik litseyda o'qishini davom ettirishini xoxlaysizmi? _____
17. Farzandingizning kasb - hunar kollejida o'qishini xoxlaysizmi? _____
18. Sizningcha u tanlagan kasbi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib etishaoladimi? _____
19. Boshqa fikrlaringiz? _____

10 - Mavzu: Kasb-hunarga yo'naltirish komissiyalari, o'quvchilar va ot-onalar bilan ishlash

Reja:

1. Kasb hunarga yo'naltirish komissiyalarini va ularning ishlarini tashkil qilish.
2. Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha o'quvchilar bilan ishlash.
3. Ota- onalar bilan ishlash

Tayanch so'zlar: Kasb hunarga yo'naltirish komissiyasi. O'quvchilar bilan ishlash. Ota-onalar bilan ishlash

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda o'qituvchilar va sinf rahbarlari; ota-onalar qo'mitasi kengashi; to'garaklarning rahbarlari bevosita ish olib boradilar. Maktabdan tashqari muassasalar, odatda qiziqishlari, moyiligi va qobiliyati yetarli darajada namoyon bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradi. Bunday hollarda o'quvchilarda ijodkorlik va tashabbus ruhi ustunlik qiladi, ular amaliy faoliyatning xususiyati esa muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar uyi, bolalar kutubxonalari, yosh tabiatshunoslar va yosh tajribachilar texnika stansiyalari, yoshlar klubi, ixtirochilik-ratsionalizatorlar byurolari va shu kabilar) kasbga yo'naltirish umumiy ishi sistemasida faol qatnashadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'qituvchilarning maxsus qiziqishlari shakllanadi va ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Bular mehnat politexnik ta'limini to'ldiradi, o'quvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik vaj sabablarini shakllantirishga yordam beradi, xalq xo'jaligi turli tarmoqlari bilan tanishishni kengaytiradi, o'quvchilarni qiziqtiradigan kasblar va mutaxassisliklarni, avvalo o'z tumani, viloyatidagi kasblar va mutaxassisliklarni chuqur bilib olishga imkon beradi. Kasblarga yo'naltirish bo'yicha fakul'tativ kurs kasbga oid ma'lumot olish, uzil-kesil kasb tanlashga yo'llash, real ishga joylashishi hamda o'quvchilarga maslahat berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ish shakllarini bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

I. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soniga qarab:

1. Bir necha parallel sinflar, aralash sinflar qatnashadigan tadbirlar.

II. Tashkil etish uslublariga qarab:

1. Yalpi tadbirlar – leksiylar, yig'ilishlar, konferensiyalar, olimpiadalar, kinofil'mlarni ko'rish; tematik kechalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalar; kasb bo'yicha kalendar kunlar.

2. Guruhiy tadbirlar – ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, yosh texniklarning musobaqalari, korxonalar va yetakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka bo'ylab sayyohlik yurishlari.

3. Yakka-yakka o'tkaziladigan tadbirlar – kasb haqida maslahat beriladigan suhbatlar, kasb to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ish yuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar; o'quvchini qiziqtiradigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.

III. Mazmun manbalarga qarab:

Kasblar bilan tanishtirish; -sayohatlar, malakali ishchilar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar, o'qituvchining hikoyasi yoki suhbat, kinolardan parchalar, fotosuratlar, ro'znoma va oynomalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun proyeksion apparatlardan foydalanish; -taklif qilingan ishlab chiqarish ishchisini suhbat; kasblar haqidagi ma'lumotnomalar bilan tanishish; -mehnat va ishlab chiqarish ta'limi bilan bog'liq kasblar to'g'risidagi ocherklar o'qish; -mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish yordamida axborot materiallarini to'plash; -fotosuratlar, fotoal'bomlar ko'rsatish; ishlab chiqarish sharoitida malakali ishchilar kasbiy faoliyati to'g'risidagi kinofil'mlarni namoyish qilish; -bazaviy xo'jalikda ishlab chiqarish tajribasi vaqtida kasblar bilan tanishish.

IV. Kasbga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha; -"O'qish uchun qayerga kirish kerak" ma'lumotnomasining nashr etish, kasblar va kasb xunar kollejlari haqidagi plakatlar, e'lonlar, reklama varaqalari; -mazkur iqtisodiy rayonda mavjud kasblarning qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar; -"Mehnat yo'lini tanlash", "Mening kasbim-eng yaxshi kasb" mavzusidagi kinofil'mlar; -reklama qilinadigan televizion fil'mlar, sexlar, o'quv yurtlaridan olingan televizion reportajlar; -kasblar musobaqa ilg'orlari to'g'risida radioeshitirishlar, kasb-xunar kollejlari yoshlarining turmush va o'qishi haqidagi hikoya qiluvchi jumhuriyat va mahalliy ro'znomalarda bosilgan maqolalar; shahar kinoteatrlari foyyellarida, magazinlarning vitrinlarida, katta ko'chalarning chorrahalarida ishchi kasblarini targ'ib qiluvchi stendlar va ko'rgazmalar; -ko'chalar va maydonlardagi yoshlarni kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishga da'vat etuvchi yorqin bo'yoqli chaqiriqlar.

4. Maktab kasbga yo'naltirish ishi sistemasini tarkib toptirish hali nihoyasiga yetkazilgani yo'q. Kasbga yo'naltirish sistemi tarkibiy tuzilishi kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarini: - ya'ni maktab ta'lim bosqichlari bo'yicha uning mazmunini: -bazaviy korxonalar, ota-onalar jamoatchiligi ishtirokidagi kasbga yo'naltirish ishining yo'nalishlarini; -kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish shakllari, metodlari va vositalarini; -muayyan ishchi kasblari bo'yicha unumli mehnatda maktab yoshlari ishtirokining aniq yo'llarini o'z ichiga olishi lozim (6-shakl)da ifodalangan.

Umum o'rta ta'lim maktabida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni rivojlantirish quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular:

Xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish.

Ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotni umuman o'rganish.

Kasblarning asosiy guruhlari bilan tanishtirish.

Viloyat, tuman xo'jaligi biron tarmog'ining, bazaviy korxonaning tanlangan ishchi kasbini dastlabki egallash bosqichlaridir.

Kasbga yo'naltirish maktab sistemasining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) kasbga yo'naltirish har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida;

b) ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosida mehnat yo'lini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosini to'g'ri hal qilish;

v) kasbga yo'naltirishning og'zaki metodlarini atrof-tevarakdagi korxonalar yetakchi ishchi kasblari asoslarini egallash borasidagi konkret amaliy harakatlar bilan qo'shib olib borish;

g) maktabdagi barcha darslarda yuqoriga ko'tarilib boruvchi chiziq bo'yicha kasb maorifi va kasbni targ'ib qilishning pog'onali tuzilishi;

d) maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikdagi kuch g'ayratlari bilan ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashning faol metodlari.

Namunaviy dastur talablariga muvofiq har bir o'quv fani bo'yicha darslar mazmunini hisobga olib, kasbga yo'naltirishni sinfdan sinfga rejalashtirish masalalari eng murakkab ishdur.

Ommaviy maktablarda kasbga yo'naltirishning amaliy vazifalarini hal qilishga sistemali yondashish usuli qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirishning sinflar bo'yicha asosiy mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:


Boshlang'ich sinflarda: atrof-tevarakdagi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tabiatdan foydalangan holda mehnat faoliyati turlari bilan tanishtirish.

O'rta sinflarda: umumiy ta'lim turkum o'quv fanlari darslarida og'zaki metodlari yordami bilan hamma ishlarni o'z ichiga oladigan va birga qo'shilgan kasblarning asosiy guruhlar bilan mehnat ta'limi darslarida esa metall ishlash, elektrotexnika, yog'ochga ishlov berish kasblari mehnat usullari bilan ko'rgazmali tanishtirish.

Yuqori sinflarda: aniq ishchi kasblari asoslarini egallagan holda ishlab chiqarishning aniq sohalarini negizida kasbga yo'naltirish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan maqsadli kasbga yo'naltirish maktab sistemasi mazkur muammoning hamma jihatlarini qamrab olish imkonini yaratadi, hozirgi sharoitda tuman, shahar, viloyat va jumhuriyat doirasidagi yangi ijtimoiy - iqtisodiy tafakkur asoslarini hal qilishni hisobga olib, uni takomillashtirish yo'llarini belgilashga yordam beradi.

5-шакл.



11-Mavzu. Kasb tanlashga doir reja tuzish.

Reja:

1. Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja tuzish .
2. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash.
3. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash

Tayanch so'zlar:Shaxsiy ish reja tuzish. Kasbiy qiziqish.Moyilliklarni aniqlash. Insholar yozish.

Kasbga doir reja tuzish

Ma'ruzaning bundan avvalgi bo'limlaridan siz kasblar klassifikatsiyasi nimaligini bilib oldingiz, kasb tanlash formulasini qanday tuzish, o'z qiziqishlaringiz, mayllaringiz, qobiliyatingiz qandayligini bilib olish, bu fazilatlar siz tanlaydigan kasb qo'yadigan talablarga qanchalik muvofiq kelishini taqqoslab ko'rish to'g'risida tasavvur hosil qildingiz. Amaliy mashg'ulotlarda, ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullangan vaqtingizda siz konkret mehnat faoliyatida o'z kuchingizni sinab ko'rish imkoniga ega bo'ldingiz. Xullas, siz endi biror to'plagan tajribangizni kasb tanlash masalasini hal qilish vaqtida ishga solib, undan foydalanishingiz mumkin.

Endi siz o'z mehnat faoliyatingizni yaqin kelajakda va uzok istiqbolda qanday tasavvur etishingizni qog'ozga tushirishga, ya'ni shaxsiy kasbga doir rejangizni tuzib chiqishga harakat qiling.

Albatta kasbga doir planning yagona bir shaklini tavsiya etish qiyin uning mazmuni ham, tuzilish yo'li ham kishining aql idrokiga, uning umumiy bilim saviyasiga, e'tiqodi va boshqa ko'p narsalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun biz mana shu aytilgan omillarning faqat eng asosiysi ustida rejada, albatta, ko'rsatilishi shart bo'lgan omil to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Ko'zda tutilgan asosiy maqsad rejaning negizini tashkil etishi kerak, ya'ni unda nima ish bilan shug'ullanish, kim bo'lib etishish, umumxalq ishiga qanday hissa qo'shish, bu ishda kimlarga tenglashish o'z aksini topmog'i kerak. Shundan keyin mazkur maqsadga erishmoq uchun har bir kishi o'z imkoniyatlariga: qizikishlari, mayllari va qobiliyatlariga, salomatligiga, irodaviy sifatlariga real baho berishga harakat qilib ko'rish zarur.

Kasbga doir reja tuzish vaqtida maqsadga erishish yo'llari va vositalarini: o'z kuchini qaerda va qanday qilib sinab ko'rish mumkinligini, kerakli ma'lumotni qaysi ta'lim muassasalaridan olish mumkinligini, kasb mahoratini qanday qilib oshirish mumkinligi va hokazolarni belgilab olish kerak.

O'z maqsadingizga etishish yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ham oldindan ko'ra bilish kerak, bu behuda iztirob chekishning oldini olish va mabodo zarur bo'lib qolsa, tanlangan kasbni boshqasi bilan almashtirish imkonini beradi.

Kasbga doir rejada kishining o'z-o'zini tarbiya qilish dasturi: kasbiy jihatdan muhim bo'lgan qanday fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, o'z sog'lig'ini qanday qilib mustahkamlash mumkinligi va boshqa shu singari tadbirlar ham o'z ifodasini topishi kerak. O'z bilimni mustaqil oshirib borish o'z ustida ishlash masalalariga ham: qanday adabiyotni o'qish, qanday to'garaklarda yoki qiziqish bo'yicha tuzilgan guruxlarda shug'ullanish, qanday ko'rgazmalarni borib ko'rish singari masalalarga ham alohida e'tibor berish lozim.

Shunday qilib, o'zingiz ko'rib turganingizdek, shaxsiy kasbga doir rejalar yaxshi va har tomonlama o'ylangan bo'lishi kerak, ularni tuzish vaqtida har bir kishi mustaqillik ko'rsatishi va mas'uliyatni his etib turishi lozim.

Tuzilgan kasbga doir rejaga vaqt-vaqti bilan murojaat qilib turish kerak bo'ladi. Qiziqishlar chuqurlashib, kasb to'g'risidagi bilimlar ortib, amaliy faoliyat sohasida muayyan tajriba to'planishiga qarab reja ham o'zgarib borishi, u ancha real rejaga aylantirilishi mumkin.

Quyida misol tariqasida kasbga doir rejaning fragmenti qanday o'zgarib borishi mumkinligini keltirib o'tamiz. Bu o'zini qishloq xo'jalik ekinlari etishtirish bilan bog'liq bo'lgan ishga bag'ishlagan kishining rejasidir:

- biologiya va qishloq xo'jalik ekinlari (sabzavotchilik) agrotexnikasiga oid adabiyotlarni o'qib-o'rganish;

- biologiya va qishloq xo'jalik ekinlari agrotexnikasiga doir qiziqarli kitoblar va maqolalar nomini to'plab kartoteka tuzish, mazkur masalaga doir kitoblarni yig'ib kutubxonacha tashkil etish;

- o'quvchilar fermer dalalarida ishlab, mo'l hosil olinishiga erishish;

- sabzavot ekinlari etishtirish sohasidagi ish tajribalari yuzasidan jamoa fermerlardan, ilmiy muassasalarning xodimlari va olimlaridan topshiriqlar olish uchun ular bilan aloqa o'rnatish;

- boshqa maktablarning yosh tabiatshunoslari bilan tajriba almishish.

1. Kasbga doir reja deganda siz nimani tushunasiz?

2. Kasbga doir rejani tuzish vaqtida qanday talablarga amal qilish zarur?

3. Kasbga doir o'z shaxsiy rejangizni tuzib chiqing, uni ota-onangiz, o'qituvchilaringiz, o'rtoqlaringiz bilan birga muhokama qiling.

12-Mavzu: Kasb tanlashda uchraydigan xatoliklarni oldini olish omillari.

Reja

1. Kasb tanlashda uchraydigan tipik xatoliklar.
2. Kasb tanlashdagi ongliklik va mustaqillik.
3. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish.

Tayanch so'zlar: Tipik xatoliklar. Ongliklik va mustaqillik. Tahlil qilish.

Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar

To'g'ri kasb tanlash bu oson ishlardan emasligini endi o'zingiz ham bilasiz. Demak, kasbni shunday tanlash kerakki, kelgusida bajaradigan ishingiz o'zingizda qoniqish hosil qilsin va jamiyatga foyda keltirsin.

Birdaniga yuksak yoki oliy malakali kasbni nazarida tutib ish ko'rish kerak. Har qanday faoliyat sohasida mahoratning dastlabki bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan kishilar mehnatda yuksak natijalarga erishadilar.

Masalan, kimki dastlab kichik mutaxassis bo'lib ishlagan bo'lsa, u yaxshi muxandis bo'lib etishishi mumkin, kimki o'z vaqtida tirishqoq bo'lgan bo'lsa va ishining barcha nozik tomonlarini bilsa, o'sha kishi yaxshi rahbar bo'lishi mumkin.

1. O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi.

Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug'ullanayotgan ishga ham o'tadi. Binobarin, o'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi.

2. O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha bo'lg'usi kasbini belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi.

U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqtiruvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. Kasbning tashqi jihatini bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu - mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar.

4. Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudliginavbatdagi kamchilikdir. Yoshlarimiz, odatda, engil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun etarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar.

5. O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. O'kuvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarniqilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. Shu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarining yosh avlodni jamiyatimizni taraqqiy ettirishda qatnashishga tayyorlash borasidagi mas'uliyati har qachongidan ko'ra ortib bormoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilarning ilm-fan asoslariga oid bilimlarini rivojlantirish, ularda yuksak onglikni tarbiyalash, umuminsoniy va milliy axloqiy sifatlarni o'zaro uyg'unlikda kamol toptirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash hozirgi kun maktab ta'limining asosiy vazifalaridir.

Sanab o'tilgan vazifalar qatorida o'quvchini o'zining kelajakdagi kasbini to'g'ri tanlashga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Zero kasb tanlash – insonning hayot yo'lida o'ziga xos burilishi yasaydigan muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayoti davomidagi faoliyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash – har bir o'smirning oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Kasb tanlashdan maqsad jamiyatga va oilaga foyda keltirib, inson o'zi ham moddiy, ham ma'naviy qoniqish hosil qilishidir.

Har bir shaxs kasbni barqaror qiziqish, maylga muvofiq tanlashi, shu bilan birga o'zida dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o'ziga va o'z imkoniyatlariga ishonch, qaror qabul qilishdagi mulohazalilik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga ham intilishi kerak.

Biz maktab o'quvchilarining kasb tanlari bilan bog'liq faoliyatini o'rganishimiz davomida ular duch keladigan quyidagi asosiy muammolarni aniqladik: sog'lig'ining ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelmasligi, kasbga yaroqsizlik, mos kelmaslik, kasb tanlashda etarlicha ongli va mustaqillik fikrlay olmaslik, o'z-o'zini tarbiyalay olmaslik, kasb tanlashda xatoliklarga yo'l qo'yish va boshqalar. Fikrimizna ko'ra, ushbu muammolar ichida kasb tanlashda o'quvchilarning yo'l qo'yadigan xatoliklar o'zining dolzarbligi va ahamiyatliligi bilan ajralib turadi. O'quvchi o'z kasbini shunday tanlashi kerakki, kelgusida mashg'ul bo'ladigan faoliyat turi uning o'zida ham qoniqish hosil qilsin va shu bilan birga jamiyatga foyda ham keltirsin.

Biz ushbu muammoni o'rganish maqsadida turli adabiyot hamda me'yoriy hujjatlarni o'rganib, o'quvchilar bilan anketa so'rovlari o'tkazdik. Amalga oshirgan tahlillarimizga ko'ra kasb tanlashda asosan quyidagi xatoliklarga yo'l qo'yiladi:

1. *O'quvchilarning tanlagan kasblari yuzasidan to'la axborotga ega bo'lmasdan, o'z oldilariga birdaniga oliy malaka talab qiluvchi yuksak kasbni egallashni maqsad qilib qo'yishlari.* Inson kelgusida o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lib etishishi uchun o'z mehnat faoliyatini nimadan boshlashi to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rmog'i kerak.

2. *O'quvchilarning kasblar nufuzli yoki nufuzsiz bo'ladi degan xato tushunchaga ega bo'lishlari* kasb tanlashdagi haqqoniylikni buzilishiga olib keladi. Bu boradagi xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarda kasblarning yomoni bo'lmasligi, har qanday sohada etuklikka erishish avvalo insonning o'zida mujassam bo'lgan sifatlarga bog'liq ekanligini anglab etishlariga ko'maqlashish talab etiladi.

3. *«Sheriklardan orqada qolmaslik uchun» kasb tanlash.* Bu boradagi xatoliklarni barataraf etish uchun o'quvchilarga u yoki bu kasbni tanlashda birinchi yoki oxiri bo'lishdan ko'ra o'z qiziqishlari, qobiliyatlari hamda salomatligiga mos keladigan kasbni tanlashi ahamiyatliroq ekanligini tushuntirish lozim.

4. *Biror kasb egasi bo'lgan kishiga qaratilgan munosabatni kasbning o'ziga ko'chirish.* Har bir insonni kasbga bo'lgan munosabati, kasbning mehnatiga bo'lgan munosabati turlicha bo'ladi. Masalan, agar o'quvchi shoferlik kasbi egalari qiyofasida doimo avtomobilda xush kayfiyatda xizmat vazifalarini bajarib yuradigan insonlarni tasavvur qiladi. Biroq, har qanday kasbda bo'lgani kabi, shoferlik kasbining ham ko'plab qiyin va murakkab, mashaqqatli tomonlari borligini o'quvchilar har doim ham tasavvur qilavermaydi.

5. *Kasbning faqat tashqi yoki xususiy bir jihatiga qiziqishi o'quvchini ko'p muammolarga olib keladi.* Jumladan, kasb tanlash formulasiga ko'ra o'quvchida mavjud bo'lgan qobiliyat va salomatligi o'zaro mos kelmasligi mumkin. Kasb tanlashda hal qilinishi lozim bo'lgan har qanday masalaga kompleks yondashish, muammoning barcha qirralarini o'zaro mujassam holda tasavvur qilish hamda uning talablarini har tomonlama qondiradigan echimni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. *O'quv predmetining kasbga tenglashtirilishi.* O'quvchilar ba'zida o'zlari yoqtirgan, engli o'zlashtiradigan o'quv fanini kelajakda egallaydigan kasbi bilan uzviy davomiylikda tasavvur qiladilar. Biroq, yaxshi ma'lumki, o'quvchi har qanday kasbni egallash uchun o'zida ko'plab o'quv fanlarini mujassam etgan va bundan tashqari ta'lim jarayonining zaruriy komponenti sifatida talab etiladigan ko'plab boshqa mashg'ulotlarni o'z ichiga oluvchi kasbiy ta'lim jarayoni o'taganidan keyingina muayyan kasb egasi bo'lib etishadi. Bu borada o'quvchilarni kasbiy ta'lim jarayonining mohiyati bilan to'laroq tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. *Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatning harakteri to'g'risidagi eski tushunchalar.* Ularni bartaraf etish – maktab yoki kollejlarning iqtisodiy jihatdan salohiyatli homiylarni joylardan qidirishi, mehnat va kasb ta'lim jarayonini ishlab chiqarishga yo'naltirib, foyda beradigan omillarni o'rganib daromad oladigan holatga keltirishga oid tadbirlarni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq.

8. Ko'plab ota-onalar kasb tanlashdagi pedagogik, metodik, huquqiy va boshqa omillar bilan etarlicha tanish bo'lmaganliklari tufayli:

- farzandlariga noto'g'ri yo'nalish beradilar;
- o'zlari va qarindoshlari kasblar bo'yicha beradigan axborotlarni noto'g'ri izohlaydilar, farzandlarining istak-qobiliyatlarini hisobga olmasdan maslahat bermadilar;
- kasb tanlashda yoshlarning o'zlari anglamagn holda oliy o'quv yurtlariga kirishga intilishlari ishlab chiqarish kasblariga bo'lgan salbiy munosabatni keltirib chiqarmoqda;
- kasb-hunar kollejida egallayotgan mutaxassisligiga qanoat qilmagan ayrim yoshlar o'qish o'rtasida tamoman boshqa kasblarni o'zlashtirishga intilmoqdalar.

Bulardan tashqari o'quvchilarning o'zi hoxlagan, qiziqgan o'quv yurtiga o'qishna kira olmasliklari natijasida, boshqa mutaxassislikni o'qitadigan o'quv yurtlari kasblarini tanlashi, bunda ko'proq ota-ona hoxishi bilan ish yuritish kabi ko'plab holatlar mavjud.

Hozirda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olayotgan ba'zi o'smirlar kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchi ekanliklari haqida etarli tasavvurga ega emaslar. Bu boradagi mulohazalarimizni aniqlashtirish maqsadida kasb-hunar kollejlarning «Sartaroshlik va dekorativ kosmetika» mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar bilan so'rovnoma o'tkazib, quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Kim bo'lishni orzu qilgan edingiz?
2. Bu kasb-hunar kolleji haqida ma'lumotni qaerdan oldingiz?
3. Kelajakda kasb-hunar kollejini bitirib kim bo'lmoqchisiz?

O'quvchilarning 60 foizi kelajakda sartarosh bo'lib ishlash niyatida ekanligini bildirishdi, bu esa ko'pchilik umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish ishlari talab darajasida tashkil etilganini ko'rsatadi. 30 foiz o'quvchilar kasb-hunar kollejini bitirib, oliy o'quv yurtiga kirib, o'qish niyatini bildirishgan (afsuski, sartaroshlik bo'yicha tayyorlanadigan oliy o'quv yurti bor yoki yo'qligini o'quvchilar hali bilishmaydi), 10 foiz o'quvchilar bekor yurmaslik maqsadida maktab o'qituvchilari yoki ota-onalarining so'zlari bilan o'qishga kirganlar.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, hali ham ba'zi maktablarda kasbga yo'naltirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Kasb tanlash markazlari, o'quv yurtlarining qabul komissiyalari, ota-onalar bilan aloqalar hamma maktablarda ham qoniqarli emas. Hozirgi zamon ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyoti natijasida texnika-texnologiyaning doimiy ravishda yangilanib turishi haqida o'quvchilarga etarlicha axborot berib borilmayapti. Bu boradagi kamchiliklarning bartaraf etilishi o'quvchilar kelajakda zamonamizga kerakli etuk mutaxassis bo'lib etishishlari, avvalo o'zi, so'ngra oilasi va jamiyatimizga kerakli mutaxassis bo'lib etishishiga zamin tayyorlaydi.

13 - Mavzu: Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari, shakl va metodlari.

Reja:

1. Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari.
2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish shakllari.
3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish metodlari.
4. Kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida o'quvchilarni o'rganish metodlari.

Tayanch so'zlar: Tamoyillar. Shakllar. Metodlar. Maqsadlar.

Birinchi kasbiy maslahat byurosi 1908 yil AQSh ning Boston shahrida tashkil etilgan bo'lib, bu sana kasbga yo'naltirishning boshlanishi deb yuritilib kelmoqda. Birok tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelgan.

Kasbiy maslahat - kasb taniash, kasbni yoki faoliyat turini o'zgartririshda yordamga muhtoj bo'lgan shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlar, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog'ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish asosida psixolog-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o'zaro muloqot tizmidan iborat.

Kasb xakida maslahat berish maqsadida maktabda fakat taxminiy psixodiagnostikaning ayrim elementlarigina amalga oshiriladi va bunday xolda psixodiagnostika tarkib topadigan kasb to'g'risida maslahat berishdan iborat bo'ladi.

Kasb xaqida maslahat berish shaxsiy psixologik va shaxsiy xususiyatlar u yoki bu kasbning o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishini aniklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Maslahat berishning quyidagi turlari: ma'lumotnoma, diagnostik, shakllantiruvchi va tibbiy turlari bor. Ma'lumot tarzidagi maslahat chog'ida o'quvchilar ishga joylashish yo'llarini, ishga va o'qishga kabul qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarni, turli kasblarni o'zlashtirish imkoniyatlarini, tayyorgarlik muddatlarini, mehnatga xak to'lash sistemasini, kasbiy o'sish istiqbollari bilib oladilar. Diagnostik maslahatlar shaxsni, uning kizikishlari, mayllari, qobiliyatlarini o'rganishga qaratilgan bulib, bunda shaxsning ana shu xususiyatlari uning tanlaydigan kasbiga yoki unga yakin bulgan xunarga mosligini aniqlash kuzda tutiladi. Shakllantiruvchi maslahatlarda maktab o'quvchilarning kasb tanlashiga raxbarlik kilishni, tuzatish (to'g'rilash) ni amalga oshirish maqsadi ko'zda tutilgan bo'lib, bunday maslahatlar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'ladi, o'quvchi shaxsida yuz beradigan o'zgarishlarni muntazam ravishda qayd kilishni ko'zda tutadi. Tibbiy maslahatlar o'quvchining sog'lig'ini, uning tanlaydigan kasbiga nisbatan psixologik xususiyatlarini aniklashni maqsad kilib qo'yadi. Bunda, agar zarur bo'lib qolsa, psixofiziologik ma'lumotlarga mos bo'lgan boshqa kasbni yoki faoliyatning tanlab olinadigan soxasiga yakin bo'lgan kasbni aniklash maqsad kilib qo'yiladi.

Kasb tanlash ishlarini tashkil etish tamoyillari.

TASHKILIY–METODIK TAMOIYILLARI

ta'limning izchilligi, tizimliliigi, ketma-ketligi;
ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
ta'limda ko'rgazmalilik;
ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
ta'limning tushunarliiligi;
guruhli va individual ta'lim birligi;
ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi.

MAZMUNLI TAMOIYILLARI

insonparvarlik;
ilmiylik;
tarbiyalovchi ta'lim;
tabiat bilan uyg'unlik;
madaniyat bilan uyg'unlik;
fuqarolik;
fundamentallik va amaliy yo'naltirilganlik (nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi).

Kasb tanlashga yo'llash ishlarini tashkil etish shakllari.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi shakllarini bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

I. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soniga qarab:

1. Bir necha parallel sinflar, aralash sinflar qatnashadigan tadbirlar.
2. Yakka-yakka o'quvchilar qatnashadigan tadbirlar.

II. Tashkil etish usullariga qarab:

1. Yalpi tadbirlar – leksiylalar, yig'ilishlar, konferentsiyalar, olimpiadalar, videofilmlarni ko'rish; tematik kechalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalari; kasb bo'yicha kalendar kunlari.
2. Guruhli tadbirlar – ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, yosh texniklarning musobaqalari, korxonalar va etakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka bo'ylab sayyohlik yurishlari.
3. Yakka-yakka o'tkaziladigan tadbirlar – kasb haqida maslahatberiladigan suhbatlar, kasblar to'g'risida tavsiya etilgankitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ishiyuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar; o'quvchini qiziqtiradigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.

III. Mazmun manbalariga qarab:

Kasblar bilan tanishtirish; sayohatlar, malakali ishchilar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar, o'qituvchining hikoyasi yoki suhbatlari, kinolardan parchalar, fotosuratlar, ro'znoma va oynomalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun proektsion apparatlardan foydalanish; taklif qilingan ishlab chiqarish ishchisining suhbatlari; kasblar haqidagi ma'lumotnomalar bilan tanishish; mehnat va ishlab chiqarish ta'limi bilan bog'liq kasblar to'g'risidagi ocherklarni o'qish; mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish yordamida axborot materiallarini to'plash; fotosuratlar, fotoalbomlar ko'rsatish; ishlab chiqarish sharoitida malakali ishchilar kasbiy faoliyatlari to'g'risidagi kinofilmlarni namoyish qilish; bazaviy xo'jalikda ishlab chiqarish tajribasi vaqtida kasblar bilan tanishish.

IV. Kasbga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha:

«O'qish uchun qaerga kirish kerak» ma'lumotnomasini nashr etish, kasblar va hunar-texnika bilim yurtlari haqidagi plakatlar, e'lonlar, reklama varaqalari; mazkur iqtisodiy tumanda mavjud kasblarning qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar; «Mehnat yo'lini tanlash», «Mening kasbim - eng yaxshi kasb» mavzusidagi videofilmlar; reklama qilinadigan televizion filmlar,

tsexlar, o'quv yurtlaridan olingan televizion reportajlar; kasblar va musobaqa ilg'orlari to'g'risida radioeshittirishlar, kasb-hunarkollejlariga, yoshlarining turmush va o'qishi haqida hikoya qiluvchi Respublikamiz va mahalliy ro'znomalarda bosilgan maqolalar; shahar kinoteatrlari foyelarida, supermarketlarning vitrinalarida, katta ko'chalarning chorrahalarida ishchi kasblarini targ'ib qiluvchi bannerlar va ko'rgazmalar; ko'chalar va maydonlardagi yoshlarni kasb-hunar kollejarigao'qishga kirishga da'vat etuvchi yorqin buyoqli chaqiriqlar.

Maktab kasbga yo'naltirish ishi sistemasini tarkib toptirish hali nihoyasiga etkazilgani yo'q. Kasbga yo'naltirish sistemasi tarkibiy tuzilishi kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarini; maktab ta'limi bosqichlari bo'yicha uning mazmunini; bazaviy korxonalar, ota-onalar jamoatchiligi ishtirokida kasbga yo'naltirish ishining yo'nalishlarini; kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish shakllari, metodlari va vositalarini; muayyan ishchi kasblari bo'yicha umumli mehnatda maktab yoshlari ishtirokining konkret yo'llarini o'z ichiga olishi lozim.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni rivojlantirish quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular:

- I. Xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish.
- II. Ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotini umumian o'rganish.
- III. Qasblarni asosiy guruhlar bilan tanishtirish.
- IV. Viloyat, tuman xo'jaligi biron tarmog'ining, bazaviy qo'shma-korxonaning tanlangan ishchi kasbini dastlabki egallash bosqichlaridir.

Kasbga yo'naltirish maktab sistemasining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- a) kasbga yo'naltirish har tomonlama kamol topgan, faolshaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida;
- b) ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosidamehnat yo'lini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosinito'g'ri hal qilish;
- v) kasbga yo'naltirishning og'zaki metodlarini atrof-tevarakdagi korxonalar etakchi ishchi kasblari asoslarini egallashborasidagi konkret amaliy harakatlar bilan qo'shib olib borish;
- g) maktabdagi barcha darslarda yuqoriga ko'tarilib boruvchichiziq bo'yicha kasb ta'limi va kasbni targ'ib qilishning pog'onali tuzilishi;
- d) maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashning faolmetodlari.

Namunaviy dastur talablariga muvofiq har bir o'quv fani bo'yicha darslar mazmunini hisobga olib, kasbga yo'naltirishni sinfdan sinfga rejalashtirish masalalari eng murakkab ishdir.

Ommaviy maktablarda kasbga yo'naltirishning amaliy vazifalarini hal qilishga sistemali yondashish usuli qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirishning sinflar bo'yicha asosiy mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

Boshlang'ich sinflarda: atrof-tevarakdagi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tabiatdan foydalangan holda mehnat faoliyati turlari bilan tanishtirish.

O'rta sinflarda: umumiy ta'lim turkum o'quv fanlari darslarida og'zaki metodlar yordami bilan hamma ishlarni o'z ichiga oladigan va birga qo'shilgan kasblarning asosiy guruhlar bilan, mehnat ta'limi darslarida esa metall ishlash, elektrotexnika, yog'ochga ishlov berish kasblari mehnat usullari bilan ko'rgazma-li tanishtirish.

Yuqori sinflarda: konkret ishchi kasblari asoslarini egallagan xolda ishlab chiqarishning konkret sohalari negizida kasbga yo'naltirish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan tarzdagi kasbga yo'naltirish maktab sistemasi mazkur muammoning hamma jihatlarini qamrab olish imkonini yaratadi, hozirgi sharoitda rayon, shahar, viloyat va jumhuriyat doirasida yangi iqtisodiy tafakkur asoslarini hal qilishni hisobga olib, uni takomillashtirish yo'llarini belgilashga yordam beradi.

14-Mavzu: Kasb tanlashda uchraydigan xatoliklarni oldini olish omillari. Kasb tanlashga doir reja tuzish.

Reja

1. Kasb tanlashda uchraydigan tipik xatoliklar. Kasb tanlashdagi ongliklik va mustaqillik. Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish.
2. Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja tuzish.
3. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash. Tanlangan kasb hunarga doir ma'lumotlar to'plash.

Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar

